

O'zbekistonda 1 mln dasturchi

tayyorlashning yangi yo'nalishlari

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot butun dunyo mam-lakatlari iqtisodiyotining qiyofasi va tuzilishini o'zgartir-moqda. Ushbu jarayonda ba'zi kasblar qisqaryapti, yangi-lari paydo bo'lmoqda.

3-bet

Yangi tayanch o'quv reja qanday omillarga asoslanadi?

Yangi umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2020/2021-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejada ona tili va adabiyot fani haftada 57 soat, yillik jami 1 938 soat o'qitilishi belgilangan.

6-bet

Tarixga to'g'ridan qaraylik

Xullas, hozir amalda bo'lgan dasturda davr gorizon-tal usulda joylashtirilgan, voqealar (tarix) esa verti-kal tartibda. Biz mulohaza tarzida bir fikrni o'rta-ga tashlashga jur'at qildikki, unda voqealar gorizont-al joylashtiriladi, ya'ni tarixni o'rganish insoniyat erishgan yutuqlarni yillar kesimida talqin qilishdan boshlanadi.

12-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Ma'rifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2020-yil 4-mart, chorshanba № 10 (9283)

Xalq ziyolilari gazetasi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

Qarori

2020-YILGI NAVRO'Z UMUMXALQ BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA UNI O'TKAZISH TO'G'RSIDA

Xalqimiz milliy yuksalish va milliy taraqqiyotning yangi bosqichiga qadam qo'ygan hozirgi vaqtda barcha ezgu qadriyat va an'alarimiz qatori Navro'z bayramining ham hayotimizdagi o'rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Ayniqsa, ushbu qadimiy bayramning ruhi va falsafasida mujassam bo'lgan yasharish va yangilanish, yaxshilik va bag'rikenglik, tabiatni asrab-avaylab, doimo u bilan uyg'un

bo'lib yashash kabi o'lmas g'oyalari bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning asosiy maqsadi va ma'no-mazmuniga g'oyat hamohang ekanini ta'kidlash lozim.

Xalqimiz asrlar davomida katta shod-u xurramlilik bilan nishonlab kelayotgan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan xalqaro bayram sifatida belgilangan Navro'zi olamning ana

shunday beqiyos ahamiyatini hisobga olib hamda bu ayyomni yangi O'zbekistonning demokratik qiyofasi, obro'-e'tibori va nufuziga har tomonlama munosib tarzda o'tkazish maqsadida:

1. 2020-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha tashkiliy qo'mita tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

(Davomi 2-betda.)

To'garaklar faoliyatidan



Jasoratli yoshlarni tarbiyalaymiz

Maktabimizda o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish va kasbga yo'naltirish maqsadida darsdan keyingi to'garak mashg'ulotlariga katta e'tibor qarantilyapti.

2013-yildan buyon yoshlarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish, harbiy kasblarga bo'lgan qiziqishni oshirish maqsadida faoliyat yuritib kelayotgan "Jasorat" to'garagi o'quvchilarimizning bir maqsad yo'lida birlashib harakat qilishlariga hissa qo'shmoqda. Bunda to'garaklar koordinatori Mudofaa vazirligi faxriylar kengashi raisi o'rinbosari polkovnik Erkin Talabayev hamda maktabimiz direktorining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari Munira Yusupovaning ko'magi qo'l kelyapti.



Ayni kunlarda to'garagimiz a'zolari 250 nafarga yetdi. Mashg'ulotlarda o'quvchilar boshlang'ich harbiy tayyorgarlik, tarixiy-adabiy, tibbiyot, sport-sog'lomlashtirish, badiiy-musiqiy yo'nalishlarda o'quvchilar qo'shimcha ta'lim o'lyapti. Kuni kecha to'garagimiz a'zolari O'zbekiston Qurolli Kuchlari muzeyida sobiq sovet harbiy qo'shinlari safida Afg'on urushida qatnashib, halok bo'lgan yurtimiz o'g'lonlari xotirasiga bag'ishlangan tadbirda ishtirok etishdi. Unda o'quvchilarimiz o'zlarining badiiy chiqishlarini namoyish etdilar. To'garagimiz rejasidan o'r'in olgan bunday uchrashuv, tadbirlar o'g'il-qizlarda el-yurt ravnaqi yo'lida kerakli inson bo'lish istagi, vatan ertasiga daxldorlik tuyg'ulari shakllanishiga turki beradi.

Sayyora SOBIROVA, Sirg'ali tumanidagi

300-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili o'qituvchilariga ochiq xat



10-11-betlar

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



Ayrim umumta'lim muassasalarida nafaqa yoshidan ancha o'tgan pedagoglar hali-hanuz ishlab kelmoqda. O'qituvchi 15 yildan so'ng ham ruhan, ham jismonan toliqa boshlar ekan. Va yillarda sermahsul faoliyat olib boradi. Ammo keyin qarilik sekin bo'y ko'rsata boshlaydi. Uzoq yillar xalq farzandini o'qitdik, tarbiya berdik, 55 yoshdan keyin nabiralarimizga bilim beraylik. Bu davrga kelib o'qituvchi sekin-asta kuchdan qola boshlarkan, ko'z xiralasharkan, oldingiday tik turib dars o'tishga oyoq ham, bel ham chidamay qolarkan.

Maqsuda SHAMSIYEVA

5-sinflarga endi darsga kirayotsam, kotiba qiz "Ustoz, sizni "zavuch" chaqiryapti, tanaffusda oldiga kirarkan-siz", deb ketdi. Shu zahoti xayolimga turli fikr keldi... Nima ayb qildim ekan? Ha, kecha 6-soat tugashiga 10 daqiqa qolganda 2 nafar uyi uzoq o'quvchiga javob bergandim. Yana o'ylashda davom etdim. Yo'q, menimcha, sinfdagi o'quvchilar to'polon qilganiga bo'lsa kerak. Darsni bo'lib o'tadigan sherigim sal kechroq qolgandi, balki shungadir!? Yoki so'ragan hujjatni topshirmadimmikan?..

Xullas, tanaffusgacha o'zimizni rosa taftish qildim. Yaxshiyam "zavuch"larimiz bor!

Sohibaxon ARABBOYEVA

Ayanchli voqeadan hammamiz dong qotdik. Maktabimizni a'lo baholarga bitirgan, tibbiyot kollejining 3-kursida ta'lim olayotgan sobiq o'quvchimiz o'z joniga qasd qilibdi. Nega bunday bo'lganini hech kim bilmaydi. Eshitishimizcha, kollejning oldi o'quvchilardan bo'lgan, lekin sababi haligacha noma'lum. Menimcha, tarbiya darlarida diniy mazmundagi mavzular, yashashning mohiyatini anglatuvchi mambalar berilsa, ma'qul bo'lardi. Hamma narsasi yetarli, atrofda gilarning havasidagi bolalarning bunday nojo'ya ish qilishiga oilalarda diniy bilim yetarli emasligi sabab bo'lgan. Moddiy ta'minlab qo'yish — bolani tarbiyalash, uning qalbiga quloq tutish degani emas.

Lobar YOQUBOVA

2 Qonun va qonunosti hujjatlariga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablarining asosiy vazifasi yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishdan iborat, faqat ta'lim berish emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori

2020-YILGI NAVRO'Z UMUMXALQ BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA UNI O'TKAZISH TO'G'RSIDA

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Tashkiliy qo'mita Navro'z bayramini Toshkent shahrida, Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlarida, shuningdek, barcha shahar va tumanlar, qishloq va ovullarda umumxalq sayillari shaklida yuqori saviyada nishonlash bo'yicha "Navro'z — yangi kun, yangi davroning muborak, jonang O'zbekistonim!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan Navro'z umumxalq bayramini o'tkazish konsepsiyasi va tashkiliy-amaliy, madaniy-ma'naviy hamda targ'ibot-tashviqot ishlari dasturini bir hafta muddatda ishlab chiqsin va amalga oshirsin.

2. Mazkur konsepsiya va dasturni tayyorlashda barcha tadbirlarni tom ma'noda umumxalq sayli va shodiyonasi sifatida o'tkazish, ularda keng xalq ommasining faol ishtirok etishini ta'minlash maqsadida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilsin:

Navro'z kunlarida inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik, ona zaminga mehr va e'tibor yaqqol o'z ifodasini topishini ko'rsatib beradigan, atrof-muhitni, uning ne'matlarini asrab-avaylash, bugungi tinch hayotni

qadrlab, shukronalik tuyg'usi bilan yashashga da'vat etadigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni uyushtirish;

so'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar, xalqimizning hayoti, qalbi va ongida yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarni Navro'zning azaliy qadriyat va an'analarga homohang tarzda, ta'sirchan usullarda ifoda etish;

barcha shahar va qishloqlarda tashkil etiladigan bayram tadbirlarida, ommaviy axborot vositalarida Navro'z bayramining tarixi, har bir hudud aholisi o'rtasida uni nishonlash bilan bog'liq urf-odat va an'analarning mohiyati va ahamiyatini keng yoritish;

xalqimizga xos bo'lgan mehr-muruvvat, ahillik va hamjihatlik fazilatlarini asosida nuroniy keksalarni har tomonlama e'zozlash, ko'makka muhtoj insonlarga beg'araz yordam berish bilan bog'liq xayriya tadbirlarini amalga oshirish;

yurtimizda millatlararo do'stlik va totuvlik muhitini mustahkamlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tizimli ishlarning amaliy natijalari, O'zbekiston fuqarosi

bo'lgan turli millat va elat vakillarining Navro'zni nishonlashga oid urf-odatlarini, an'ana va qadriyatlarini keng namoyish etish;

obodlik va farovonlik ramzi bo'lmish Navro'z bayrami arafasida shahar va qishloqlarda, mahallalarda umumxalq hasharlari, keng qamrovli obodonchilik va ko'kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish;

tadbirlar bo'lib o'tadigan joylarda hunarmandchilik ko'rgazmalari, kitob rastalari, ko'chma savdo do'konlari, ko'klam taomlarini tayyorlash va ularning savdosini tashkil qilish.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari:

a) bir hafta muddatda quyidagilarni nazarda tutuvchi Navro'z umumxalq sayillarini o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlar dasturlarini ishlab chiqsin va tasdiqlasin;

Navro'z umumxalq sayillari o'tkaziladigan asosiy maydonlar, xiyobonlar va ko'chalarni belgilash, ularni milliy uslubda bayramona bezatish hamda sahnalarni o'rnatish;

joylarda bo'lib o'tadigan umumxalq sayillariga mahal-

liy folklor guruhlari, badiiy havaskorlik jamoalari, sirk san'ati vakillari, oilaviy ansambllar, baxshilar, shoirlar, shuningdek, professional ijrochilar va iste'dodli estrada artistlarini keng jalb etish;

bayram tadbirlari doirasida har bir hududga xos bo'lgan xalq o'yinlari, tomoshalar, ko'rgazmalar va musobaqalarni o'tkazish, bahoriy taomlar sotiladigan ochiq oshxonalarini joylashtirish;

b) bayram dasturlarini va ommaviy tomoshalarni tayyorlashda, ko'chalar, xiyobonlar va maydonlarni bezatishda katta mahorat va tajribaga ega bo'lgan xalq o'yinlari, tomoshalar, ko'rgazmalar va rejissorlar, ijodkorlar, kompozitor va bastakorlar, baletmeysterlar, sahna rassomlari, iste'dodli yosh ijrochilar, folklor san'ati vakillaridan iborat ijodiy guruhlarni keng jalb etsin;

v) O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi bilan birgalikda Navro'z umumxalq sayillariga xorijiy va mahalliy turistlarning tashrifini tashkil etish maqsadida keng

targ'ibot va tayyorgarlik ishlarini amalga oshirsin.

4. Belgilab qo'yilsinki, o'tkaziladigan bayram tadbirlari:

Toshkent shahrida respublika budjeti va Toshkent shahar mahalliy budjeti mablag'lari hisobidan teng ulushlarda;

Qoraqalpog'iston Respublikasi budjeti va viloyatlarda mahalliy budjetlar hisobidan qoplanadi.

5. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, "Dunyo" axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni atroficha yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi A.A.Abduvaxitov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti

Sh.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2020-yil 3-mart

Intizom talab qilish xato bo'lsa, ha, biz aybdormiz!

Internetda tarqalgan Jizzax shahridagi 24-maktabda sochi o'sgan bolalarga ko'rilgan choralar haqidagi suratlarga munosabatlarga maktab jamoasining munosabati

Maktabimiz Jizzax viloyatining so'lim go'shisi — "Ilon o'tdi" darasi markazidagi Jizzax shahriga qarashli Amir Temur MFYning "Qorasoy" mavzesida joylashgan. 280 o'rinni o'quv quvvatiga ega binoda hozir 437 nafar o'quvchiga ikki smenada 44 nafar o'qituvchi dars beradi.

Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligining 2012-yil 7-iyundagi 177-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Maktabning ichki tartib-qoidalarini", vazirlikning 2013-yil 28-fevraldagi 74-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchi va o'quvchilarining odob-axloq qoidalarini" va boshqa tegishli qonun, qonunosti hujjatlariga aniq, og'ishmay amal qilib ta'lim-tarbiya berishmoqda, qolaversa, o'quvchilarimizni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalashga harakat qilmoqdamiz.

Faoliyatimiz yuzasidan ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan "sochi o'sgan bolalarning sochi chizg'ichda o'Ichandni" mazmunidagi video hamda "ta'lim sifatiga sochning qanday aloqasi bor?", "tirmoq ichidan kir qidirdingand ko'ra ta'lim sifatini oshirish haqida o'ylab ko'rishsa bo'lardi" qabilida bildirilayotgan fikr-mulohazalar hamda norozi kayfiyatdagi maktabimizdagi ta'lim-tarbiya jarayoniga shubha bilan qarayotgani nafsoniyatimizga tegadi.

Amaldagi qonun va qonunosti hujjatlariga ko'ra, umumiy o'rta ta'lim maktablarining asosiy vazifasi yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishdan iborat, faqat ta'lim berish emas. Biz "Odob-axloq

qoidalarini"da belgilanganidek, o'g'il bolalarning sochi 2-3 santimetrdan oshmasa, ularning ta'limi (bilimi) sifati oshadi, degan xato fikrda emasmiz. Aksincha, umumiy o'rta ta'lim muassasalarining ikki asosiy vazifasidan biri — o'quvchilarni intizom va qonuniylik, milliy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularning gigiyenaga amal qilish ko'nikmalarini tarbiyalashdir.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan, amaldagi odob-axloq qoidalarini (xususan, o'g'il bolalarning sochiga doir talablari) nima uchun qabul qilingan? O'quvchilarning o'sha qoida va talablarga amal qilishlari uchunmi? Yo shunchaki, amal qilinadimi, yo'qmi, huquqiy hujjat mavjud bo'lsa bo'ldi, degan maqsaddami? O'g'il bolalarning sochlari belgilangan me'yordan ikki baravar o'sib ketgan bo'lsa-yu, yana o'quvchi sochini g'arbining "ommaviy madaniyat" elementlariga ergashib, taqld qilib, milliylik va qonuniylikni unutib, "har ko'yga solib, "modabozlik"ning orqasidan quvib yursa-yu, shunday holatning oldini olish uchun qilinayotgan harakatlarni "tirmoq ostidan kir qidirish" deb baholash qaysi me'yor, qoida, mantiqqa yoki adolat mezoniga mos?

Maktabimizning o'qituvchilar jamoasi ta'lim-tarbiya faoliyatida qonuniylikni hurmat qilib, "minimal imkoniyatdan maksimal natijaga erishish" shiori ostida, bundan 10-15 yil avval ham bugungi kundagi kabi faoliyat olib borgan. Bu fikrlarni Jizzax viloyat XTB, shahar XTBning vijdonli, diyonatli, mas'ul xodimlari tasdiqlashi shubhasiz. Biz shu kungacha ta'lim-tarbiya bo'yicha imkoniyatimiz darajasida faoliyat yuritishga harakat qilmoqdamiz, "juda qattiq ishlamaymiz" deb o'zimizning qattiq ishlayotganimizni ko'rsatish fikri xayolimizning ko'chasiga ham kelmagan, kelmaydi ham. Biz ayrimlar kabi amalga oshirgan, chala bajarilgan yoki bajarilmagan ishlarni ommaga ko'z-ko'z qilishga mutlaqo harakat qilmaganmiz.

Bugun o'qituvchi obro'sini ulug'lashga qaratilgan davlat siyosati amalga oshirilayotgan bir paytda "ommaviy madaniyat" tarafdorlari bo'lgan, nosog'lom fikrlaydigan ayrim blogerlarning bilib-bilmay, o'quvchi-yoshlarni milliy qadriyatlar, intizom va qonuniylik ruhida tarbiyalashga harakat qilayotgan, fidoyi o'qituvchilarni aqli zaiflikda, tubanlikda aylash orqali kamsitish va haqorat, tuhmat qilishdan iborat fikr-mulohazalarini ig'vodan boshqa narsa emas, deb hisoblaymiz. Pedagogning o'quvchi-yoshlar tarbiyasiga e'tibor bermasligi, jamiyatda o'rnatilgan qoidalarga amal qilmasligi aslida, gumrohkiddir. Lozim topsak, tegishliicha tartibda shaxsiy haq-huquqlarimiz uchun kurashib, muayyan maqsadlarga

erishamiz. O'zbekistonda milliy qadriyat va an'analarni qalbi va amali bilan uyg'unlikda qadrlaydigan, hurmat qiladigan, kelajak avlodga yetkazishga harakat qilayotgan haqiqiy millatparvar yurtdoshlarimiz, hamkasblarimiz, mansabdor shaxslarimiz yetarli. Dunyoda hech bir narsa yo'qki, uning yaxshi yoki yomon jihati bo'lmas! Faqat uzviy ta'lim-tarbiyagina bundan mustasno. Zero, bilimli, zukko, go'zal odobli inson o'z vaqtida va to'g'ri olingan ta'lim-tarbiyaning natijasi bo'lib, uning har joyda, hamma vaqt, hammaga nafi tegadi.

Maktabimiz xodimlarining amaldagi "Umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchi va o'quvchilarining odob-axloq qoidalarini"da belgilangan o'g'il bolalar sochi bilan bog'liq faoliyati yuzasidan ijtimoiy tarmoqlarda iliq munosabatlarni bildirgan hamkasblarimiz va yurtdoshlarimizga minnatdorhiligimizni bildiramiz. Adolati va ijodiy salohiyati bilan mashhur hukmdor va shoir Ubaydiy qalamiga mansub quyidagi satrlar biz haqimizda noto'g'ri g'umonda bo'lganlarga qarata aytilgandek, nazarimizda:

Hech kimsaga tekkizma
zaboni poking,
Bo'lsin desang, osuda
bu joni poking.
Iflos qiladi og'izni g'iybat, bilsang,
Bas, bulg'ama hech
qachon dahoni poking.

Jizzax shahridagi
24-maktab jamoasi

2020-yil — Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili

O'zbekistonda 1 mln dasturchi tayyorlashning yangi yo'nalishlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida joriy yilga "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nom berildi hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tub burilish qilish, mazkur soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida xorijiy hamkorlarimiz bilan birgalikda **"1 million dasturchi"** loyhasini amalga oshirish kabi muhim vazifalar belgilab berildi.

Mazkur vazifalarni samarali bajarish, mamlakatimizda ilm-fanni yanada rivojlantirish hamda raqamli iqtisodiyotni shakllantirishda talaba-yoshlarimizning chuqur bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlarini ta'minlash juda muhim hisoblanadi.

Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot butun dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining qiyofasi va tuzilishini o'zgartirmoqda. Ushbu jarayonda ba'zi kasblar qisqaryapti, yangilari paydo bo'lmoqda. Bundan tashqari, raqamli iqtisodiyotga o'tish aholining xarid qobiliyatini, tovar va xizmatlardan foydalanish imkoniyatini oshirmoqda. Ichki tarmoqlararo raqobat kuchaymoqda, bozorlar kengaymoqda, ayrim mamlakatlarda tarmoqlarning raqobatbardoshligi oshyapti, bu esa dunyo bozori rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Natijada raqamli iqtisodiyotning texnologiyalarini faol ravishda qo'llayotgan yirik kompaniya va tashkilotlar juda yuqori o'sish samaradorligiga erishmoqda.

McKinseyning so'zlariga ko'ra, Rossiya Federatsiyasi iqtisodiyotini raqamlashtirishning potensial iqtisodiy samarasi yalpi ichki mahsulotni 2025-yilga qadar 4-8,9 trln rublga oshiradi.

Bundan tashqari, 2025-yilga kelib dunyoda raqamli iqtisodiyotning ulushi 23 trln AQSh dollariga yetadi. Uning jahon YIMdagi ulushi hozirgi 17,1 foizdan 24,3 foizga o'sadi, bulutli texnologiyalardan foydalanuvchi korxonalar soni 58 %ga, sun'iy intellekt — 86 %, raqamli katta hajmdagi ma'lumotlar — 80 %ga oshadi. Tarmoq standartlari: 5G standartidagi uyali tarmoqlarning ma'lumot almashish tezligi 20 Gbit/s ga yetadi, bu 4G standart tarmoqlaridan 4 barobar yuqori ko'rsatkichdir.

Mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek, "raqamli iqtisodiyot"ni shakllantirish kerakli infratuzilma, ko'p mablag' va mehnat resurslarini talab etishini juda yaxshi bilamiz. Biroq qanchalik qiyin bo'lmasin, bu ishga bugun kirishmasak, qachon kirishamiz?! Ertaga juda kech bo'ladi. Shu bois, "raqamli iqtisodiyot"ga faol o'tish — kelgusi 5 yildagi eng ustuvor vazifalarimizdan biri bo'ladi. Bunda **1 mln zamonaviy dasturchi-kadrlarni** respublikamizning oliy ta'lim muassasalari (xorijiy yetuk mutaxassislarini jalb etgan holda) tayyorlashlari zarur. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi ham.

Raqamli iqtisodiyotning quyidagi 14 ta kompleks innovatsion texnologiyalari mavjud:

- katta hajmli ma'lumotlar bilan ishlash texnologiyalari — **BIG DATA**;
- sun'iy intellekt — **Artificial Intellect**;
- **neyrotexnologiyalar**;
- **kvant texnologiyalari**;

- **buyumlar interneti** — **Internet of Things**;

- **robototexnika va sensorika**;
- **raqamli elektron platformalar**;
- **bulutli texnologiyalar** — **Cloud Technologies**;

- **mobil texnologiyalar**;
- **virtual va qo'shimcha reallik texnologiyalari (VR, AR)**;

- **kraudsorsing va kraudfunding texnologiyalari**;

- **blokcheyn texnologiyalari**;
- **kriptovalyutalar va ICO texnologiyalari**;

- **3D-texnologiyalar**.

Mazkur texnologiyalarni samarali ishlatishni o'rgatish uchun oliy ta'lim muassasalari o'z mutaxassisliklarini 60 %ga yangilashi zarur. Xususan, raqamli iqtisodiyotga to'laqonli ravishda o'tish uchun mamlakatimiz oliy ta'lim muassasalarida quyidagi **26 yo'nalishda** zamonaviy mutaxassislar tayyorlashni (ayniqsa, 1 mln dasturchini) yo'lga qo'yish zarur:

1. Yuqori darajadagi dasturlash tillarida ishlay oladigan dasturchilar;
2. Elektron platformalar va ekotizimlar bo'yicha mutaxassislar;
3. AR (qo'shimcha reallik) va VR (virtual reallik) bo'yicha mutaxassislar;
4. Moliyaviy texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar;
5. Digital Banking mutaxassislari;
6. Ijtimoiy tarmoqlarda ishlash bo'yicha mutaxassislar;
7. Bilimlar bazalari bo'yicha mutaxassislar;
8. Ma'lumotlar xavfsizligi bo'yicha muhandislar;
9. Turli sohalaridagi raqamli transformatsiya bo'yicha mutaxassislar;
10. Bulutli texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar;
11. Masofaviy ta'lim bo'yicha mutaxassislar;
12. Ma'lumotlar bazalari administratorlari;
13. Raqamli logistika bo'yicha mutaxassislar;
14. Raqamli fazodagi marketologlar;
15. Aqlli texnologiyalar bo'yicha mutaxassislar;
16. Big Data bo'yicha mutaxassislar;
17. Digital Analitika bo'yicha mutaxassislar;
18. Buyumlar internetining arxitektori;
19. Taqsimlangan ma'lumotlar bazalari bo'yicha mutaxassislar;
20. Virtual muhit dizaynerlari — VR-arxitektoralari;
21. Ovozli interfeyslar dizayneri;
22. Buyumlar interneti interfeysi dizaynerlari.

23. Robototexnika muhandislari.

24. Ma'lumotlar bilan ishlaydigan mutaxassislar;

25. Informatsion texnologiyalar bo'yicha yuristlar;

26. Kompyuter lingvistikasi bo'yicha mutaxassislar;

1 mln dasturchi tayyorlash uchun ta'limda amalga oshirilishi lozim bo'lgan islohotlar

Singapur tajribasi: Singapur "iqtisodiy mo'jizasi" muallifi Li Kuan Yudan "Qanday qilib mittigina davlatda mo'jiza yarata oldingiz?" deb so'rashganida, u shunday javob bergan ekan: "Davlat budjetini ta'limga yo'naltirdim. Muallimni eng quyi tabaqadan Singapurdagi eng yuqori martabaga ko'tardim. Davlatdagi eng katta mo'jizalarni qilgan insonlar — bu muallimlardir. Ular ilm, axloq, mehnat va haqiqatni sevadigan kamtar avlodni yetishtirib berdi. Buning uchun ulardan **minnatdormiz**".

Singapur tajribasiga asosan O'zbekistonda amalga oshiriladigan islohotlar:

- maktablarda matematikaga qobiliyati yuqori bo'lgan o'quvchilarni ajratib olish (1-4-sinflar);

- qobiliyatni rivojlantirish modelini joriy etish;

- turli xil tanlovlarni o'tkazib qobiliyati bor o'quvchilarni rag'batlantirish (masalan, sportchilarga o'xshab);

- dasturchi tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarida davlat granti asosida o'qishga qabul qilishni ko'paytirish;

- barcha dasturchilarni dunyodagi yangi dasturlarni o'zida mujassam etgan kompyuterlar (noutbuklar) bilan ta'minlash;

- Prezident maktablarini dasturchilar tayyorlashga yo'naltirish;

- Toshkent axborot texnologiyalari universiteti va Toshkent shahridagi Inha universitetining filiallari va fakultetlarini viloyatlarda ko'paytirish va mazkur oliy ta'lim muassasalarida davlat granti bo'yicha qabul kvotalarini, shuningdek, professor-o'qituvchilarning ish xaqi va talabalar stipendiyalarini keskin oshirish;

- o'quv jarayonida korrupsiyaning oldini olish maqsadida oraliq va yakuniy nazoratlarni 2-kursdan boshlab abituriyentlar qabul sinovini o'tkazuvchi test markazida o'tkazish (Qozog'iston tajribasi) yoki Yevropa Itifoqi (YI) tajribasiga muvofiq barcha imtihonlarni yozma ravishda olib, shifrlab boshqa OTMlarga bir oy ichida sinchiklab tekshirishga yuborish (masalan, Toshkent shahridagi Singapur menejmentni rivojlantirish va xalqaro Vestminster universitetlari);

- yakuniy natijalar bo'yicha talaba va professor-o'qituvchilarning faoliyatini tahlil qilish va tegishli choralar ko'rish;

- o'quv dasturlari va darsliklarni yaratishda AQSh va YIning eng yangi dasturlaridan foydalanish;

- talabalar, magistrantlar va tadqiqotchilarni Amazon, Apple, Alibaba, IBM va boshqa gigant kompaniyalar faoliyatini tahlil qilishga yo'naltirish va mazkur kompaniyalarda ishlashga tayyorlash;

- tayanch doktorant va mustaqil izlanuvchilarga raqamli iqtisodiyotning 15 ta texnologiyasini O'zbekistonda joriy etish bo'yicha dissertatsiya ishi mavzularini birlashtirish va ularga yetarlicha sharoit yaratib berish;

- tadqiqotchilarning dissertatsiya ishlari mavzusining boblari va paragraflarini magistratura va bakalavriat bosqichi talabalariga kurs ishi sifatida birlashtirish;

- "Zamonaviy dasturlash ochiq universitetlari"ni tashkil etib, 6 oylik va 1 yillik qisqa kurslarda masofadan dasturchilar tayyorlash (Hindiston va Xitoy tajribasi);

- dasturchilarni uch kategoriyaga bo'lib tayyorlash maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- 1) ilmiy izlanuvchi va yangi dastur yaratuvchilar;

- 2) barcha tarmoq va sohalarida mavjud bo'lgan raqamli iqtisodiyot texnologiyalari va internet tizimlari ishini yurituvchilar;

- 3) iste'molchilarning raqamli savodxonligini oshiruvchilar;

- ta'limda xarajatlarni "faol" va "passiv"ga bo'lish. Bugungi kunda ta'limga berilayotgan xarajatlarning 50-60 %i qurilish ishlariga ajratilmoqda (Al-Xorazmiy, Beruniylar davrida bugungidek hashamatli o'quv binolari va sport majmualari bo'lmagan).

Xulosa o'rinda shuni aytish joizki, bildirilgan fikr-mulohazalar O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyot dasturini hayotga tatbiq qilish, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning institutlari va infratuzilmasini yaratish, respublikaning barcha tarmoqlarini qamrab oluvchi informatsion jamiyatni tashkil qilish uchun kerakli bo'lgan barcha chora-tadbirlarni amalga oshirish, global miqyosda va global bozorlarda respublikamizning raqobatbardoshligini oshirish, yangi texnologiyalar yaratishga to'stinlik qilayotgan huquqiy to'siqlarni yangi normativ-huquqiy baza yaratish yordamida to'liq bartaraf qilish, raqamli iqtisodiyot infratuzilmasini yaratish va rivojlantirish, shu jumladan, tarmoqlar, ma'lumotlarni qayta ishlash markazlari, texnik va dasturiy ta'minotning zamon talablariga mos ravishda rivojlanishi, ta'lim tizimining har tomonlama rivojlanishi va yangilanishini ta'minlashga, shuningdek, mamlakatdagi turli kompaniya, firma va davlat korxonalarining hamda biznesning rivojlanishiga puxta asos yaratilishiga hamda raqamli iqtisodiyot sohasida ko'plab tashkilotlar vujudga kelishiga munosib hissa qo'shadi.

Saidahror G'ULOMOV, Davlat Statistika qo'mitasi qoshidagi Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti kafedra mudiri, O'ZR FA akademigi, i.f.d., professor

Munis ABDULLAYEV, "Iqtisodiyotda axborot texnologiyalari" kafedra mudiri v.v.b. i.f.f.d. (PhD)

O'zbek o'qituvchisining Fransiya taassurotlari

2019-yilning dekabr oyida Fransiyaning O'zbekistondagi elchixonasi tomonidan taqdim etilgan stipendiya sohibi bo'lib, Monpelye shahrida ikki haftalik malaka oshirish kurslarida ishtirok etib qatnashdim. Ushbu stajirovka maqsadlari akademik hamkorlik doirasida fransuz tilini o'qitish metodikasi hamda madaniy tadbirlar, tajriba almashinuvlarni o'z ichiga oldi.

O'tgan qisqa davr ichida olti kishidan iborat o'zbekistonlik o'qituvchilar guruhi Monpelye shahridagi "Accen français" til maktabida chet tili o'qitish metodikasi bo'yicha maxsus bilim va ko'nikmalarni egallab, o'zimiz uchun yanada kerakli ma'lumotlarni oldik. Darslar biz uchun tanish bo'lgan fransuz tili ustozlari Malika va Lyubov xonim tomonidan qiziqarli tarzda olib borildi. Dastlabki kunning o'zidayoq o'zbek o'qituvchilari 2 haftalik o'quv dasturi bilan tanishtirildi. Dars mashg'ulotlarida ertalabdan tushgacha fransuz tiliga oid bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, tushlikdan so'ng esa Kler xonim bilan birgalikda fransuz tili metodikasi va didaktika darslarini o'zlashtirishga, undan so'ng Monpelye shahri va uning diqqatga sazovor joylarini ko'rishga muvaffaq bo'ldik. Monpelye shahri Fransiya janubida, Erol departamenti, Okitaniya provinsiyasida joylashgan bo'lib, Ispaniya va Italiya davlatlari bilan chegaralar hudud hisoblanadi (Bu shaharga yaqinligi sabab dam olish kunlari go'zal ispan diyorining Barcelon shahriga ham borishga muvaffaq bo'ldik). Monpelye o'tgan asr oxirlaridan boshlab Fransiyaning yirik demografik va iqtisodiy shahriga aylangan. Tarixiy manbalarga ko'ra Monpelye XVI asrda qiroli Lyudovik XIII tomonidan mustahkam hudud sifatida tashkil etilgan. Aynan O'rtayer dengiziga yaqin joylashganligi sabab (7 km), shahar iqlimi bahavo va tosh yotqizilgan

ko'chalar changsiz, daraxtlar odatda doimiy yashil tusda go'zal manzara kasb etadi.

Malaka oshirish davomida xorijiy tillarni o'qitishdagi yangi metodlar, o'yinlar, qo'shiqlar, she'rlar, 4 ko'nikma, ya'ni tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va gapirish ko'nikmalarini o'quvchilarga singdirishning samarali usullari haqida ma'lumotga ega bo'ldik. Darslar davomida Yaponiya, Koreya, Braziliya, Mozambik, Rossiya, Indoneziya, Quvayt, Xitoy kabi davlatlardan kelgan hamkasblarimiz bilan tajriba almashish imkoniga ega bo'ldik va ularni mamlatimiz va turmush tarzimiz, ta'lim tizimimiz bilan yaqindan tanishtirdik.

O'quvlar davomida bir-biridan qiziqarli metodlarni o'rgandik. Shulardan biri "Pêche", ya'ni "Baliq ovi" o'yini.

Doskaning bir tomoniga O'rtayer dengizi rasmi, ikkinchi tomoniga akvarium rasmi tushiriladi. Dengizda turfa xil baliqlar tasviri mavjud bo'lib, o'quvchi baliqlardan birini tutib, uning orqa qismidagi savollarga javob beradi. Javob to'g'ri bo'lsa baliqni akvariumga, noto'g'ri bo'lsa dengizga qo'yib yuboradi.

"Xotira mashqi" o'yini.
Hozirjavoblik va zukkolikni oshirish maqsadida qo'llash mumkin bo'lgan o'yin. O'qituvchi tomonidan fransuz tilida kecha bozorga borganligi va bir kilogramm kartoshka sotib olinganligi aytiladi. Keyingi o'quvchi kartoshka nomi



yoniga yana bir sabzavot va yoki meva nomini, o'lchov birligi yordamida davom ettiradi. Bu o'yinni boshqa so'zlar yordamida ham olib borish mumkin.

Kundalik mashg'ulotlarda Kler xonim biz bilan juda ko'p tavsiri va metodlarni baham ko'rdi. Masalan, darsda o'quvchi faoliyati susayishining oldini olish maqsadida turli xil badantarbiya mashg'ulotlari fransuz tilida amalga oshiriladi va bu usul o'quvchining fanga nisbatan qiziqishi va lug'at boyligini yanada oshiradi.

O'qish va sayohatimiz davomida shahar aholisi bilan ham mustazam muloqotda bo'lishga harakat qildik. Shahar aholisi immigranlar (asosan Ispaniya, Italiya, Afrika davlatlaridan kelganlar) hisobiga ko'p millatli hisoblanadi. Shu sabab turfa tillarda so'zlovchi kishilarni uchratish mumkin. Lekin shunday bo'lsa-da, siz kimdandir nimanidir so'rasangiz,

shoshmasdan, xushmuomalalik bilan fransuz tilida javob qaytarishadi. Agar biror manzil haqida so'rasangiz, hattoki o'sha yergacha borishda yordam berishadi va bu holat biz bilan bir necha bor takrorlandi. Shu o'rinda men yashagan xonadon bekasi Isabel Clarak xonim haqida ham aytib o'tsam. Ochiqko'ngil, mehribon bu fransuz ayoli o'zining go'zal xulq-atvori bilan mehmondo'st o'zbek onalariga o'xshaydi. Ishdan charchab kelishiga qaramasdan, har kuni oqshom fransuz gastronomiyasidan mazali ovqatlar tayyorlab, tatib ko'rishga chorlardir. Shu bahona dasturxon atrofida men bilan biror mavzuda uzundan uzoq suhbat qurgan fransuz tilidagi bilimlarim yanada oshishiga hissa qo'shadi.

Doston RAHIMOV,
Navbahor tumanidagi 13-maktabning fransuz tili fani o'qituvchisi

Sinab ko'ring

Sinf kodeksi

O'quvchilar bilan muloqotda sinf rahbarining roli muhim ahamiyat kasb etadi. U bola qalbiga yo'l topa olishi kerak. Shunda uni bolalar ham yaqin insonidek qabul qilishadi. O'quvchilarni yaxshi ishlari uchun rag'batlantirish, yomon ishlarining noma'qulligini tushuntirib, tanbeh berish pedagogning vazifasi.

Har haftaning oxirida o'quv-tarbiya jarayoni nazoratini o'tkazaman. Bunda ularning kundalik daftarlariga xulqi uchun baho qo'yish va ota-onalari uchun qaydlar yozish biroz qiyinchilik tug'dirardi. Chunki o'quvchining hafta davomida qanday o'qiganini, qanday tutganini eslab qolish ba'zan qiyin bo'lardi. Shuning uchun sinfda o'quvchilar amal qilishi kerak bo'lgan axloq-odob qoidalari doirasida (o'zimizning sinf uchun dolzarb deb bilgan) tartib-qoidalarini ishlab chiqdik va uni "Sinf kodeksi" deb atadik. Bu qoidalarni buzganlik uchun jarima (qoidalarni buzish darajasiga ko'ra) ballar belgiladik hamda ularni umumiy to'plashi kerak bo'lgan balldan ayirib tashlash natijalari asosidagi haftalik faoliyat xulosalarini kundalik daftarlariga yozishga kelishdik. Mana shunday dalil-isbot bilan qayd etiladigan yozuvlar o'quvchilar va ota-onalarning e'tiroziga sabab bo'lmaydi. Sinf majlisida qabul qilingan ushbu "Sinf kodeksi" xonaning ko'rinarli joyiga osib qo'yildi.

Ushbu kodeks bilan 1-jadval orqali tanishishingiz mumkin. Bunda haftalik maksimal ball belgilanib olinadi, masalan, 50 ball.

O'quv-tarbiya jarayonida amal qilinishi kerak bo'lgan qoidalar buzilmasa, o'quvchi haftalik maksimal ballga ega bo'ladi. Biror yutuqqa erishsa, unga rag'bat ball (5 ball) berish mumkin, shunda u maksimal ballga ega bo'ladi.

Mana shu ballarga qarab o'quvchining xulqiga baho qo'yish va ota-onasiga qayd yozish mumkin bo'ladi:

- 50 ball va undan yuqori — "namunalii";
- 46-49 ball — "yaxshi";
- 40-45 ball — "qoniqarli";
- 40 balddan past — "qoniqarsiz".

Bu ishni amalga oshirish uchun o'quv-tarbiya jarayonini nazorat qilish daftari tutiladi. Jadvaldagi o'quvchi familiyasining ro'parasiga kunlik qoida buzishning tartib raqami yozib boriladi. Hafta oxirida tartib raqamiga mos keluvchi jarimalar

umumiy balddan ayirilib tashlanadi, rag'bat ballar esa qo'shiladi. Bu daftarni yuritishni sinf sardori yoki biror namunalii o'quvchiga topshirish mumkin. Ular bu ishni siddiqildan bajarishadi. O'qituvchi esa yakuniy ballarga ko'ra o'quvchini baholaydi.

Buni M.Abdug'afurov misolida ko'rib chiqamiz. U hafta davomida 1-raqamli (darsni sababsiz qoldirmaslik) qoidani buzib, 5 jarima ball, 12-raqamli (darsliklarni to'liq olib kelish) qoidani buzib 1 jarima ball oldi. Lekin u shu haftada sport musobaqasida qatnashib, maktab birinchiligida g'olib bo'ldi, buning uchun u 5 rag'bat ball oldi. Endi haftalik balni topamiz:

50 (haftalik yuqori ball) — 5 (jarima ball) — 1(jarima ball) + 5 (rag'bat ball) = 49 ball

Demak, M.Abdug'afurov hafta yakunida 49 ball to'pladi. Shu asosda o'qituvchi kundalik daftariga xulqini "yaxshi" deb yozadi. Qaydlar joyiga esa erishgan yutug'i uchun ota-onasiga minnatdorlik hamda kamchiliklari: sababsiz dars qoldirgani va darsligini olib kelmaganini yozib qo'yadi.

Barcha o'quvchilarning haftalik ballari asosida guruh bali hisoblanadi, natijalar taqqoslanib, guruh o'ra aniqlanadi. G'olib guruh rag'batlantiriladi.

O'quvchilar o'z guruhining yutib chiqishidan manfaatdor bo'lgani holda bir-birini tartibga chaqirishga harakat qilishadi.

Sinf kodeksi

| Qoida raqami | O'quv-tarbiya jarayonida amal qilinishi kerak bo'lgan qoidalar | Jarima ball | Rag'bat ball |
|--------------|--|-------------|--------------|
| 1. | Sababsiz dars qoldirmaslik | 5 | - |
| 2. | Darslarga kechikib kelmaslik | 5 | - |
| 3. | Darsda nojo'ya harakatlar sodir etmaslik | 5 | - |
| 4. | Sinfxonada tartib-qoidaga qat'iy rioya qilish | 5 | - |
| 5. | Maktab hovlisi va koridorlarida tartibni buzmaslik | 5 | - |
| 6. | Sinfdoshlari bilan janjalli holat keltirib chiqarmaslik | 5 | - |
| 7. | Urfimizga mos bo'lmagan kalta soch qildirmaslik yoki shunday soch turmagida kelmaslik | 5 | - |
| 8. | Boshqalardan ajratib turuvchi taqinchoqlar taqmaslik | 5 | - |
| 9. | Kundalik daftarini ota-onalar nazoratidan o'tkazish | 5 | - |
| 10. | Tadbirlarda o'zini namunalii tutish | 5 | - |
| 11. | Darslarga maktab libosida kelish | 1 | - |
| 12. | Darsliklarni to'liq olib kelish | 1 | - |
| 13. | O'quv qurollarining to'liq bo'lishi | 1 | - |
| 14. | Navbatchilik vazifasini siddiqildan bajarish | 1 | - |
| 15. | Shaxsiy gigiyena qoidalarga rioya qilishi | 1 | - |
| 16. | Uyga vazifalarni doimo tayyorlab kelish | 1 | - |
| 17. | Darsliklarni ozoda tutish va yaxshi saqlash | 1 | - |
| 18. | Daftarlarni tutishda kamchiliklarga yo'l qo'yimaslik | 1 | - |
| R | Turli musobaqalarda yutuqlarga erishish, sinf mavqeyini ko'tarish yuzasidan aniq ishlar bajarish | - | 5 |

Erkin MIRZAYEV,
Yangiobod tumanidagi 12-maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Intervyu

Yangi maqsad va rejalar: Zamonaviy universitet qiyofasi



— Bugungi davr Oliy ta'lim tizimiga qanday yangiliklar kiritishni taqozo etadi?

— Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti butun respublika miqyosidagi ta'lim maskanlariga pedagog kadrlarni yetkazib beruvchi o'ta muhim va "strategik" obyekt hisoblanadi. Biz istagan intellektual, kritik va kreativ fikrlovchi yosh avlod qatlamini yaratish uchun, eng avvalo, professional pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojimizni qondira olishimiz zarur. Shu sababli ham universitetning boshqaruv va ta'lim berish tizimini chuqur qayta isloh qilish, rivojlantrish, real ijobiy natijalarga erishishni o'z oldimizga qat'iy maqsad qilib qo'yganimiz. 12 ming talaba va bir necha filialga ega ulkan ta'lim muassasasini taraqqiy ettirish bo'yicha aniq rejalariga egamiz.

Ta'lim sifatini ta'minlab beruvchi asosiy kuch pedagog kadrlardir. Shu ma'noda universitetda bajaradigan ishlarimiz ko'p. Oliy pedagogik ta'limda zamonaviy universitet tushunchasini qo'llayapmiz. Bu faqatgina qurib berilgan hashamatli binoni ishlatish emas, yangi muhit yaratishga qaratilgan. Umumta'lim maktabida o'quvchilarga dars berayotgan o'qituvchi zamonaviy bilim bera olishi, kun yangiliklaridan boxabar bo'lishi, o'z yo'nalishidagi ma'lumotlarni puxta bilishi lozim. Buning uchun zamonaviy darslik, zamonaviy o'quv reja va qo'shimcha adabiyotlarga ham ehtiyoj bor. Prezidentimiz Parlamentga Murojaatnomasida bu boradagi bir necha muammolarni sanab o'tib, oliy o'quv yurtiga kirish imtihonlarini soddalashtirish zarurligini ta'kidladi. Hozir ingliz tilida IELTS sertifikatiga ega bo'lganlar kirish imtihonida ingliz tili fanidan ozod etiladi. Agar boshqa fanlar — matematika, informatika, biologiyadan ham xalqaro standartlarga mos sertifikatlarini joriy etsak, o'quvchilarimiz uchun yana bir imkoniyat tug'iladi. Shu masalada DTM va ta'lim markazlari bilan ish boshladik. O'g'il-qizlar faqatgina imtihondan o'tib, o'qishga kirishni muhim deb bilmasligi kerak. Ularning shu kasbga layo-

Keyingi yillarda xalq ta'limi tizimi xodimlarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning mavqeyini oshirishga alohida ahamiyat berildi. Eng asosiy vazifa sifatida o'qituvchining jamiyatdagi mavqeyi va hurmatini oshirishga erishilmoqda. Xuddi shu jarayon oliy ta'lim tizimida ham davom etib, pedagoglar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda. Talabalarning yuqori malakali kadrlar bo'lib yetishishi hamda oliy ta'lim sifatining yuqori bo'lishi uchun bugun qanday ishlar amalga oshirilayotir? Zamonaviy universitet qiyofasi qaysi jihatlarida namoyon bo'ladi? Mazkur savollar yuzasidan Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti rektori Alisher Umarov bilan suhbatlashdik.

qati, moyilligi bo'lishi shart. Pedagoglik kasbini tanlagan inson o'z

sohasini yaxshi ko'rmasa, sinfga kirganda o'quvchilarning hurmatini joyiga qo'ymasa, gapirayotgan gapidan, berayotgan darsidan o'zi qoniqmasa, bu holat auditoriyaga darrov seziladi. O'quvchilar "Mana bu ustoz yaxshi dars o'tarkan", "Bu ustozning o'g'itini umrbod eslab qolamiz" deya bejiz aytishmaydi.

— Hozirgi zamon talabalariga — bo'lajak pedagoglarga dars berayotgan o'qituvchilar qanday sifatlarga ega bo'lishi kerak?

— Ayni paytda pedagoglarimiz yangiliklarni qabul qilishga qanchalik tayyor, degan savolni qo'ygim keladi. Chunki bu yilgi yangi ma'lumot qabul qilinib, amaliyotda qo'llanilguncha tizimga yana bir yangilik kiritilishi mumkin. Maktabga ishga kelgan yosh mutaxassislarining

kungacha o'tilgan mashg'ulotlar ko'proq nazariyaga asoslangan. Xorijiy tajribaga tayanadigan bo'lsak, chet ellik talabalar tahsil davomida maktabda dars ham berishadi.

Hozirgi talabalarning internetdan yoki mobil telefonida ko'plab yangi ma'lumotlarni olishga imkoniyati yetadi. Ularga ta'lim berayotgan professor-o'qituvchilar yangiliklarni tezda qabul qiladigan, intiluvchan va talabchan bo'lishi kerak. Shuning uchun auditoriyadagi darslarning ham mazmunan o'zgarishini davr talab etyapti. Sir emas, darsga kirayotgan o'qituvchilarimizning ko'pchiliga eskicha fikrda qolgan, ular faqatgina nazariy dars o'tishga kelishadi. Jozibali, amaliy uslubiyatga tayanib bilim berishga, mana shu orqali ruhlantirishga, yetarli darajada metodikani berishga tajribasi yetmaydi yoki e'tibor qaratishmaydi. Shu masalaga ham ijobiy yechim izlab, faqatgina bitiruvchilar uchun emas, balki

Vazir Sh. Shermatov bu yildan boshlab magistratura yo'nalishini tamomlagan 10 nafar bitiruvchini oliy o'quv yurtini bitirishi bilan o'quv maktab direktorligi lavozimiga ishga olishga tayyorligini bildirdi. Bu kelishuv talabalarimizga katta motivatsiya bo'ldi, ularni ruhlantirib yubordi, eng asosiysi, yuqori saviyada o'qishga intilayotgan yoshlar soni ortdi. Ular bitiruv-malakaviy ishini himoya qilayotganda maktabda amalga oshiriladigan istiqbol rejalarining ham taqdimotini o'tkazishadi.

bilimi ham, diplom ham bor, lekin ular dars berishga qo'rqishadi. Chunki pedagogik tajriba yetmaydi. Buning uchun yillar sarf qilinishi shart emas. Pedagogik ta'limning ichida shu tajriba maktabini yaratishni o'yladik. Ishni talabalarimiz orzulari, fikrlarini o'rganishdan boshladik. Ular qiziqarli takliflar bilan chiqishdi. Tabiiy fanlar yo'nalishida tahsil olayotgan yigit-qizlar universitet laboratoriyasini tashkil qilishni, maktabgacha ta'lim yo'nalishida o'qiyotgan talabalar esa o'z maktabgacha ta'lim tashkilotimizni tuzish istagini bildirishdi. Tizimdagi o'quv rejaning tozalash, fanlarni qisqartirish, optimallashtirish vaqti keldi. Afsuski, shu

har bir kurs talabalarini uchun amaliyot shakllarini joriy etmoqchimiz.

— Har tomonlama bilimli, zamonaviy, madaniyatli, muomalali, qat'iyyatli, ishbilarmon va boshqa ko'pgina xususiyatlarga ega bo'lgan maktab direktorlarini kam uchratamiz. Balki pedagogik ta'limning oxirgi bosqichlarida direktorlikka tayyorlov kurslarini ham joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar.

— Albatta, universitetni bitirib chiqayotgan har bir talaba nafaqat pedagog mahorat va bilimlarga, balki axborot texnologiyalari, chet tili, qo'shimcha mutaxassisliklar bo'yicha alohida sertifikat-

larga ega bo'lib, universitetni chinakam pedagog, "taraqqiyot dvigateli" sifatida tamomlashiga erishmoqchimiz. Rahbarlik ishiga pedagog bir zunda tayyor bo'lib qolmaydi. Bu borada Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda ishlashni yo'lga qo'ydik. Vazir Sh. Shermatov bu yildan boshlab magistratura yo'nalishini tamomlagan 10 nafar bitiruvchini oliy o'quv yurtini bitirishi bilan o'quv maktab direktorligi lavozimiga ishga olishga tayyorligini bildirdi. Bu kelishuv talabalarimizga katta motivatsiya bo'ldi, ularni ruhlantirib yubordi, eng asosiysi, yuqori saviyada o'qishga intilayotgan yoshlar soni ortdi. Ular bitiruv-malakaviy ishini himoya qilayotganda maktabda amalga oshiriladigan istiqbol rejalarining ham taqdimotini o'tkazishadi. Bo'lajak pedagoglar, bo'lajak direktorlar uchun qo'shimcha mutaxassislikka ega bo'lishi ham juda muhim. Faqat birgina fan emas, bir snechta fandan bilimi yuqori bo'lsa, maktabdoyam boshqa fan o'qituvchilari bilan ishlashi oson bo'ladi. Maktab direktorlarimiz haqiqiy menejerga aylanishadi. Ularning ommaviy axborot vositalari bilan faol hamkorlikda ishlashi ham ahamiyatlidir. Ijtimoiy tarmoqlarda ham o'z faoliyatlarini namoyish qilib borishlari lozim. Chet tili mukammal bilishi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalana olishi, ta'lim menejmenti yo'nalishida ham yetarli ko'nikmaga ega bo'lishini ta'minlash maqsadidamiz. Shu ma'noda har bir kishi, guruh rahbari, faollarimiz ta'lim sifatini yuqori darajaga ko'tarish uchun to'g'ri ishlaydigan mexanizm — "10 ta qadam" taklif-rejasini ishlab chiqishyapti.

— "Korrupsiyadan xoli hudud" dasturi bo'yicha ham to'xtalasangiz.

— Yurtboshimiz ta'biri bilan aytganda, "halollik vaktsinasi"ni universitetimiz talabalariga, bo'lajak pedagoglarga singdiramiz. Bu orqali minglab pedagog kadrlar ushbu "vaktsina"ni millionlab yoshlarimiz ongiga singdirishadi. Universitetimizda korrupsiyaga qarshi ayovsiz kurashish uchun, "Korrupsiyadan xoli hudud" dasturini ishlab chiqib, uni amaliyotga tezlik va aniqlik bilan joriy etishni boshladik. Kuni kecha universitetda bo'lib o'tgan uchrashuvda sud, prokuratura xodimlari bilan bo'lgan ochiq muloqot mazmunli kechdi. Talabalar, o'qituvchilar o'z fikrlarini xolis aytishdi.

Yaqinda tashkil etilgan "rektor bot"i ham o'rinni va adolatli ish yurityapti. Bu elektron manzil orqali hamma istalgan savolini beryapti. Talabalar hayotidagi muammolar ochiq-oydin yozilib, hal etilmoqda.

Eng katta muammo shuki, talabalarimizning bilimini oshirishimiz kerak. Yashirmayman, yakuniy nazoratlarda 45 foiz talaba talabga javob berolmadi. O'zi "uch"ga o'qigan o'qituvchidan kimning ham bilim olgisi, o'rgangisi keladi.

Universitetda bosqichma-bosqich kredit-modul tizimi joriy qilib boriladi, baholash, nazorat va boshqaruv jarayonlari ham elektron shaklga o'tkaziladi. Xalqaro aloqalarda faol faoliyat yuritgan holda talabalarimiz, professor-o'qituvchilarimizning rivojlangan mamlakatlarda ilmiy-amaliy bilim olishi, malakasini oshirishi uchun maksimal sharoitlar yaratamiz. Zamonaviy ta'lim muassasasi qiyofasini yaratishga bel bog'lagan ekanimiz, tez va aniq fursatlarda jahon andozalariga mos ravishda oliy ta'lim tizimini yangilashga intilamiz.

Shoira BOYMURODOVA
suhbatlashdi.

Yangi tayanch o'quv reja qanday omillarga asoslanadi?

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga Murojaatida maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur ekanligini ta'kidlagan edi.

Bundan tashqari, 2018-yilning 14-avgust kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilinib, unda umumiy o'rta ta'limning amaldagi tayanch o'quv rejasini qayta ko'rib chiqib, 10 foizga qisqartirish vazifasi belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrda qabul qilingan tasdiqlangan "Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha Yo'l xaritasi"ning 12-bandida "2019-yil dekabr oyidan boshlab, ilg'or xorijiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda davlat ta'lim standartlari, o'quv dasturlari va o'quv adabiyotlari mazmuniga bosqichma-bosqich o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish" vazifasi belgilangan.

Shuningdek, PISA (The Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturida o'quvchilarning savodxonlik darajalarini aniqlashda kompyuter simulyatsiyali interfaol topshiriqlardan foydalaniladi va barcha sinovlar kompyuter texnikasi yordamida amalga oshiriladi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya shifokori tomonidan 2018-yil 27-aprelda tasdiqlangan Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarida 1-4-sinf o'quvchilarning haftalik o'quv soati jami 88 soat etib belgilangan. Amalda bu soat 98,5 soatni tashkil etib, belgilangan me'yordan 10,5 soat oshib ketgan. Shu sababli boshlang'ich sinflarning o'quv soati Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiqlashtirildi.

Endilikda asosiy e'tibor fanlarga ajratilgan soatlarga emas, balki ulardan samarali foydalanilgan holda sifati ta'lim berishga qaratiladi.

Yuqoridagilar inobatga olinib, quyidagi ishlar amalga oshirildi:

"TARBIYA" FANI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev huzurida 2019-yil 23-avgust kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan yig'ilish bayonining 24-bandida "Milliy g'oya", "Odobnoma", "Dinlar tarixi", "Vatan tuyg'usi" fanlarini birlashtirgan holda 2020/2021-o'quv yilidan yagona "Tarbiya" fanini joriy qilish belgilangan.

Shu munosabat bilan, "Milliy g'oya", "Odobnoma", "Dinlar tarixi", "Vatan tuyg'usi" fanlari birlashtirilib, yagona "Tarbiya" fani joriy qilindi. 2020/2021-o'quv yilidan boshlab 1-11-sinflarda "Tarbiya" faniga 1 soatdan ajratilmoqda.

"ONA TILI VA ADABIYOTI" FANI

Ona tili va adabiyot fani bo'yicha yetakchi olimlar, soha mutaxassislari va amaliyotchi o'qituvchilardan iborat ishchi guruhi tomonidan xorijiy davlatlarda ona tili va adabiyot fanining o'qitilishi tahlil qilindi.

Xususan, ona tili va adabiyot fanining haftalik o'quv soati Estoniyada 39 soat, Germaniyada 41 soat, Finlandiyada 42 soat, Angliyada 43 soat, Janubiy Koreyada 46 soat, Belarusda 42 soat, Qozog'istonda 58 soatni tashkil etadi.

Mazkur davlatlar umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot fani umumta'lim davrida Estoniyada 1 365 soat, Germaniyada 1 230 soat,

Finlandiyada 1 596 soat, Angliyada 1 591 soat, Janubiy Koreyada 1 886 soat, Belarusda 1 428 soat, Qozog'istonda 1 914 soat o'qitiladi.

O'zbekiston umumta'lim maktablarida ona tili va adabiyot fanining o'quv dasturlari xorijiy tajribalar asosida o'quvchilarda tinglab tushunish, o'qib tushunish, yozish va og'zaki nutq ko'nikmalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga yo'naltirilgan holda takomillashtirildi.

Yangi umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2020/2021-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja ona tili va adabiyot fanini haftada 57 soat, yillik jami 1 938 soat o'qitilishi belgilangan.

O'quv dasturlarini chuqur tahlil qilish natijasida muomalada ishlatilmaydigan qoidalar, murakkab grammatikaga oid, oliy ma'lumotli filolog mutaxassisini tayyorlashga yo'naltirilgan mavzular o'quv dasturlaridan qisqartirildi.

Xususan, 5-sinfda ona tili va adabiyot fanidan 30 ta mavzu, 6-sinfdan 17 ta mavzu chiqarib tashlandi. Shuningdek, 5-sinfda 40 ta mavzu, 6-sinfda 23 ta mavzu yuqori sinflarga o'tkazildi.

Shuningdek, yangi o'quv yili uchun tasdiqlangan tayanch o'quv rejasidagi o'quv soatlari O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya shifokori tomonidan 2018-yil 27-aprelda tasdiqlangan Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga moslashtirildi.

Bundan tashqari, bu borada mutaxassis olimlarning fikrlari ham o'rganildi, xususan, filologiya fanlari doktori, professor Baxtiyor Mengliyev bu haqida shunday deydi:

— Ona tili bo'yicha hosil qilinadigan malakani ikkiga ajratish mumkin: 1) til jamiyatidan o'zlashtiriladigan malaka (fonetik va grammatik malaka); 2) maktabda egallanadigan malaka (imlo, pulkutsiya, leksika va b.). Fonetika va grammatikaning imlo bilan bog'liq jihatidagina ta'limga ehtiyoj sezamiz. Fonetika va grammatikaga deyar bundan boshqa bilimlarni keraksiz bilim deyish mumkin. Shu asosda ona tilidan "kerakli" (ishlaydigan) va "keraksiz" (ishlamaydigan) bilimni farqlash lozim. Ona tili darsliklariga yillar davomida kirib qolgan va "ishlamaydigan", ta'limiga davlat mablag'i, o'quvchining vaqti va ota-onaning puli behuda sarflanayotgan bunday mavzularni qanday ajratamiz?

Shuningdek, olim tomonidan keltirilgan ayrim dalillarga ko'ra:

1. Urg'u bilan bog'liq mavzular. O'zbek tili — agglutinativ til. Bunday tillarda grammatika juda rivojlangan, shuning uchun so'z ma'nolarini urg'u farqlamaydi va u nutqda sezilsiz bo'ladi (ko'zlar — "ko'p ko'z"; ko'zlar — "mo'ljallar"). Uni ta'lim bilan rivojlantirish imkonsiz. O'zbek tilidagi so'z urg'usi qoidalar asosida aniqlanadi, nafaqat o'quvchi, hatto o'qituvchining o'zi ham uni topishda qiynalishning sababi ana shunda. Uni o'qitishga hech qanday hojat yo'q. Bu mavzu 1-sinfdan 11-sinf-gacha taxminan 5 soat hajmida o'qitiladi.

2. So'z yasalishi bilan bog'liq mavzular. Til egalari nutqda so'z yasamaydi, balki (tubni, yasamani) tayyor so'zdan foydalanadi. So'z yasamas ekanimiz, bu bo'yicha bilimlar ham ishlamaydi. Demak, bu mavzu ta'limi ham keraksiz. Mavzu 1-11-sinflarda taxminan 12 soat o'qitiladi.

3. So'zlarning birikish usullari (boshqaruv, moslashuv, bitishuv) bilan bog'liq mavzular. Og'zaki va yozma nutq uchun bu bilimlar ham mutlaqo ishlamaydi. Bu mavzular rus tili grammatikasidan aynan ko'chirilgan, o'zbek tili tabiatiga sira ham mos emas. Bu mavzuga ham 1-sinfdan 11-sinf-gacha taxminan 5 soat ajratilgan.

Afsuski, mazkur fanlarni o'qitishga ajratilayotgan soatlar hajmi, jalb etilayotgan o'qituvchilar soniga ko'ra xalq ta'limi tizimiga o'qitish uchun ajratilayotgan mablag'larning eng katta qismi sarflanayotgan bo'lsa-da, o'quvchilarning savodxonlik darajasi pastligicha qolmoqda. Eng achinarlisi, o'qituvchilarning o'zlarini ham o'z mutaxassisligi bo'yicha yetarli kompetentlikka ega emasligi Sirdaryo va Surxondaryo viloyatlarida o'tkazilgan test sinovlari natijasida ma'lum bo'ldi.

Aslida, o'quvchilarga biror bilimni o'rgatish unga ajratilgan soatga emas, balki uni o'rgatish metodikasiga bog'liq. Masalan, ayrim o'qituvchilar bitta mavzuni soatlab o'quvchilarga tushuntiradi, lekin o'quvchilar bu mavzuni yetarlicha tushunmaydi. Bu borada tajribali o'qituvchi esa o'sha mavzuni 10-15 minutda qiziqarli tarzda o'quvchilarga tushuntiradi. Shunday ekan, fanni o'qitish metodikasini kuchaytirish zarur bo'ladi.

"Ona tili" darsliklarini tahlil qilish natijasida keraksiz, til malakasi uchun "ishlamaydigan" juda ko'p mavzular chiqarib tashlandi.

"MATEMATIKA" FANI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi hamda 2020-yil 31-yanvar kuni matematika, kimyo, biologiya va geologiya ilm-fanini rivojlantirishga bag'ishlangan yig'ilishda ilm-fan sohasida islohotlarni tizimli tashkil etish maqsadida va yurtimizda azaldan rivojlangan ilmiy maktablar, hozirgi bosqichdagi milliy manfaatlarimiz va taraqqiyotimiz yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ilm-fanning ustuvor yo'nalishlari sifatida matematika, kimyo, biologiya va geologiya sohalari belgilandi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga mos test sinovi topshiriladigan fanlar majmuasiga "Matematika" fani majburiy fan sifatida kiritildi.

Shu sababli, o'quvchilarga matematika fanini chuqurroq o'rgatish maqsadida 10-sinfda "Algebra" faniga haftasiga 1 soat qo'shib berildi va ushbu faning haftalik o'quv soati miqdori 3 soatga keltirildi.

"INFORMATIKA VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI" FANI

Mamlakatimizda ilm-fanni yanada ravnaq toptirish, yoshlarimizni chuqur bilim, yuksak ma'naviyat va madaniyat egasi etib tarbiyalash, raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish borasida boshlangan ishlarimizni jadal davom ettirish va yangi, zamonaviy bosqichga ko'tarish maqsadida 2020-yil "Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" deb nomlandi.

Joriy yilda mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha tub burilish qilish, bu soha uchun yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash, shuningdek, ta'limning barcha bosqichlarida xalqaro andozalarga to'liq javob beradigan axborot texnologiyalari joriy etilishi rejalashtirilgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, 5-6-sinflarda "Informatika va axborot texnologiyalari" faniga haftasiga 0,5 soatdan qo'shib berildi va ularning haftalik o'quv soatlari miqdori 1 soatga keltirildi.

Bu orqali o'quvchilarning xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish maqsad qilingan.

"KIMYO" VA "BIOLOGIYA" FANLARI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi hamda 2020-yil 31-yanvar kuni matematika, kimyo, biologiya

va geologiya ilm-fanini rivojlantirishga bag'ishlangan yig'ilishda ilm-fan sohasida islohotlarni tizimli tashkil etish maqsadida va yurtimizda azaldan rivojlangan ilmiy maktablar, hozirgi bosqichdagi milliy manfaatlarimiz va taraqqiyotimiz yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda ilm-fanning ustuvor yo'nalishlari sifatida matematika, kimyo, biologiya va geologiya sohalari belgilandi.

Shu sababli, o'quvchilarga STEAM ta'limi yo'nalishidagi fanlarni chuqurroq o'rgatish maqsadida 10-11-sinflarda "Kimyo" va "Biologiya" fanlariga 1 soatdan qo'shib berildi va ularning haftalik o'quv soatlari miqdori 3 soatga keltirildi.

"GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT" FANI

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 8-bandida "Bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lmagan fanlar asosida tuzilgan o'quv dasturidan bosqichma-bosqich voz kechish va o'quv fanlari sonini optimallashtirish" vazifasi belgilangan.

Shu munosabat bilan, "Geografiya", "Iqtisodiy bilim asoslari", "Tadbirkorlik asoslari" fanlarini birlashtirgan holda, yagona "Geografiya va iqtisodiyot" fani kiritildi. Bu orqali o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirish va Xalqaro baholash dasturlari bo'yicha xalqaro tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasining muvaffaqiyatli ishtirok etishiga tayyorgarlik ko'rish maqsad qilingan. Shuningdek, PISA (The Programme for International Student Assessment) xalqaro baholash dasturida o'quvchilarning moliyaviy savodxonlik darajasi baholanishi nazarda tutilgan.

"JISMONIY TARBIYA" FANI

O'zbekiston Respublikasi Bosh davlat sanitariya shifokori tomonidan 2018-yil 27-aprelda tasdiqlangan Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlarida 1-4-sinf o'quvchilarning haftalik o'quv soati jami 88 soat belgilangan. Amalda bu soat 98,5 soatni tashkil etib, belgilangan me'yordan 10,5 soat oshib ketgan. Shu sababli boshlang'ich sinflarning o'quv soatlari Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlariga muvofiqlashtirildi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senati raisi hamda O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan tasdiqlangan 2019-yil 30-sentabrda "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 tashabbusini amalga oshirish to'g'risida"gi majlis bayoni ijrosini ta'minlash maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarida doimiy tarzda ommaviy sport turlari musobaqalarini o'tkazish orqali o'quvchilarning jismoniy sog'lom bo'lishlari, ular o'rtaida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish ishlari yo'lga qo'yilgan.

Shu sababli, 1-4-sinflarda "Jismoniy tarbiya" fanining haftalik o'quv yuklamasi 1 soatdan belgilandi.

"CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK" FANI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasida maktab o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish ta'kidlandi.

Bu borada ilg'or xorijiy davlatlarning umumta'lim fanlari va o'quv yuklamalari o'rganib chiqildi.

O'rganish natijalarida ilg'or xorijiy (Angliya, Germaniya, Finlandiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Estoniya kabi) davlatlarda mazkur fan o'tilmastligi aniqlandi. Shuningdek, "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani o'qituvchisi "Jismoniy tarbiya" fani o'qituvchisi bilan hamkorlikda o'quvchilar o'rtaida turli sport musobaqalarini o'tkazadi.

Shu sababli 10-11-sinflarda "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanining haftalik o'quv yuklamasi 1 soatdan belgilandi.

XTV Axborot xizmati

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2020/2021-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv rejaga tushuntirish xati

I. Asosiy tamoyillar

2020/2021-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja quyidagi tamoyillarga yo'naltirilgan:

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi asosida:

- **PISA** (*Programme for International Student Assessment*), **PIRLS** (*Progress in International Reading Literacy Study*), **TIMSS** (*Trends in Mathematics and Science Study*) xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturida ishtirok etishga tayyorgarlik ko'rish;

- **"STEAM — ta'lim"** (*Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics — biologiya, kimyo, fizika, informatika, matematika, tasviriy san'at, musiqa*) dasturini joriy etish;

- kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini amaliyotga joriy qilish;

- "Tarbiya" fanining o'qitilishini bosqichma-bosqich joriy etish;

- raqamli iqtisodiyot asoslari hamda informatika va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha o'quvchilarga bilim berish;

- O'zbek tilining ona tili va davlat tili sifatida o'qitilishini ta'minlash;

- 2018-yil 27-aprelda tasdiqlangan 0341-16 (I)-son Sanitariya qoidalari, normalari va gigiyena normativlari (SanQvaN)ga amal qilish.

II. O'quv soatlarning taqsimlanishi

2. Tayanch o'quv rejada "Ona tili va adabiyot" fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

- 1-sinfda o'quv yilining 1-2-choraklarida haftasiga 4 soat "Alifbe", 4 soat "Yozuv", 3-4-choraklarida 4 soat "Ona tili" va 4 soat "O'qish" fani;

- 2-4-sinflarda haftasiga 4 soat "Ona tili" va 3 soat "O'qish" fani;

- 5-6-sinflarda haftasiga 3 soat "Ona tili" va 2 soat "Adabiyot" fani;

- 7-9-sinflarda haftasiga 2 soat "Ona tili" va 2 soat "Adabiyot" fani;

- 10-11-sinflarda haftasiga 1 soat "Ona tili" va 2 soat "Adabiyot" fani o'qitiladi.

3. Tayanch o'quv rejada "O'zbek tili/rus tili" fani uchun 2-4-sinflarda haftasiga 2 soatdan, 5-11-sinflarda haftasiga 3 soatdan ajratilgan bo'lib, ushbu fanlar quyidagi taqsimot asosida o'qitiladi:

- ta'lim rus va qardosh tillarda olib boriladigan ta'lim muassasalarida "O'zbek tili" fani 2-4-sinflarda 2 soatdan, 5-11-sinflarda 3 soatdan o'qitiladi;

- ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan ta'lim muassasalarida "Rus tili" 2-11-sinflarda 2 soatdan o'qitiladi, 5-11-sinflarda qolgan 1 soat "Ona tili va adabiyot" faniga qo'shib beriladi (mazkur 1 soat 9-sinfda "Adabiyot" faniga, qolgan sinflarda "Ona tili" faniga qo'shib beriladi);

- ta'lim qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, tojik va turkman tillarida olib boriladigan maktablarda "Rus tili" fani o'quvchilar va ota-onalar (yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar)ning

xohishi(qarori)ga ko'ra, 2-sinfdan boshlab "Ona tili va adabiyot" fanidan 1 soat olinib o'qitilishi mumkin.

4. "Tarix" fani uchun ajratilgan haftalik o'quv soatlari quyidagicha taqsimlanadi:

- 7-9-sinflarda "O'zbekiston tarixi" fani o'quv yilining 1-2-choraklarida haftasiga 1 soatdan, 3-4-choraklarida haftasiga 2 soatdan, "Jahon tarixi" fani o'quv yilining 1-2-choraklarida haftasiga 2 soatdan, 3-4-choraklarida haftasiga 1 soatdan o'qitiladi;

- 10-11-sinflarda "O'zbekiston tarixi" fani haftasiga 1 soatdan, "Jahon tarixi" fani 1 soatdan o'qitiladi.

5. "Tarbiya" fanini o'qitish bosqichma-bosqich joriy qilinadi:

- 2020/2021-o'quv yilida 1-9-sinflarda "Tarbiya" fani 1 soatdan;

- 10-11-sinflarda "Ma'naviyat asoslari" va "Dunyo dinlari tarixi" 0,5 soatdan, jami 1 soat o'qitiladi.

6. "Matematika" faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

- 1-6-sinflarda "Matematika" fani haftasiga 5 soatdan;

- 7-11-sinflarda "Algebra" fani 3 soatdan, "Geometriya" fani 2 soatdan o'qitiladi.

7. "Fizika" faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

- 6-11-sinflarda "Fizika" fani haftasiga 2 soatdan, 11-sinfda "Astronomiya" fani haftasiga 1 soat o'qitiladi.

8. "Geografiya va iqtisodiyot" faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

- 1-2-sinflarda "Atrofimizdagi olam" fani haftasiga 1 soatdan;

- 3-4-sinflarda "Tabiatshunoslik" fani haftasiga 1 soatdan;

- 5-sinfda "Geografiya" fani haftasiga 1 soat, 6-7-sinflarda 2 soatdan, 8-9-sinflarda "Geografiya" fani haftasiga 2 soatdan, "Iqtisodiy bilim asoslari" fani 1 soatdan, 10-sinfda "Geografiya" fani 1 soat, 11-sinfda "Tadbirkorlik asoslari" fani 1 soat o'qitiladi. Bu orqali o'quvchilarning moliyaviy savodxonligini oshirish nazarda tutilgan.

9. "Tasviriy san'at va chizmachilik" faniga ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlanadi:

- 1-7-sinflarda "Tasviriy san'at" fani haftasiga 1 soatdan o'qitiladi;

- 8-9-sinflarda "Chizmachilik" fani haftasiga 1 soatdan o'qitiladi.

III. Yakuniy qoidalar

10. Haftasiga "Informatika va axborot texnologiyalari" faniga 6-sinfda qo'shib berilgan 0,5 soat, "Kimyo" va "Biologiya" fanlariga 10-11-sinflarda qo'shib berilgan 1 soat, "Matematika" faniga 10-sinfda qo'shib berilgan 1 soatning o'qitilishi, shuningdek, 10-11-sinflarda "Dunyo dinlari tarixi" fanini haftasiga 0,5 soatdan o'qitish bo'yicha Respublika ta'lim markazi tomonidan metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 2017-yil 15-martdagi 140-son qaroriga muvofiq:

- malakali o'qituvchilar yetarli bo'lgan taqdirda o'quvchilar soni 25 nafar va undan ziyod bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 1-11-sinflarida "Chet tili" fani, ayrim fanlar chuqur o'rganiladigan davlat ixtisoslashtirilgan umumiy o'rta ta'lim muassasalar va umumiy o'rta ta'lim maktablarining ixtisoslashtirilgan sinflarida ixtisoslashtirilgan fan, 5-11-sinflarda "Informatika va axborot texnologiyalari",

ta'lim tili o'zbek tili bo'lmagan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 2-11-sinflarida "O'zbek tili" hamda ta'lim tili rus tili bo'lmagan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 2-11-sinflarida "Rus tili", 8-11-sinflarda "Jismoniy tarbiya", 5-9-sinflarda "Texnologiya" fanlari ikki guruhga bo'lib o'qitiladi.

12. O'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda quyidagi muddatlarga amal qilinadi:

- o'quv yilining davomiyligi — 34 hafta (1-sinflar uchun 33 hafta);
- o'quv haftasining davomiyligi — 1-4-sinflarda 5 kun, 5-11-sinflarda 6 kun;
- dars mashg'ulotining davomiyligi — 45 daqiqa;

- dars mashg'ulotlari oraliq'idagi tanaffus davomiyligi — 5-10 daqiqa (o'quv kuni o'rtasidagi tanaffusning davomiyligi — 15-30 daqiqa).

13. Tegishli qonun hujjatlarida belgilangan bayram (ishlanmaydigan) kunlarida dars mashg'ulotlari o'tkazilmaydi.

Bayram (ishlanmaydigan) kunlariga to'g'ri kelib qolgan dars mashg'ulotlarining mavzulari o'quv dasturlarini ixchamlashtirgan holda keyingi dars mashg'ulotlarida o'tiladi.

14. O'quv yili davomidagi ta'tillarning muddatlari quyidagicha belgilanadi:

- kuzgi ta'til — 4-noyabrdan boshlab 6 kalendar kuni;

- qishki ta'til — 28-dekabrdan boshlab 14 kalendar kuni;

- bahorgi ta'til — 21-martdan boshlab 7 kalendar kuni;

- yozgi ta'til — oxirgi bosqichli nazorat sinovi o'tkazilgan kundan (bosqichli nazorat o'tkazilmaydigan sinflar uchun o'quv yili tugagan kundan keyingi kundan) boshlab 1-sentabrgacha.

Ta'tilning oxirgi kuni bayram (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelib qolgan taqdir, dars mashg'ulotlari keyingi ish kunidan boshlab davom ettiriladi.

1-sinf o'quvchilari uchun fevral oyi davomida qo'shimcha bir haftalik ta'til beriladi.

15. Ta'lim qoraqalpoq, rus, qozoq, tojik, qirg'iz, turkman tillarida olib boriladigan maktablarda Pedagogik kengashning qaroriga binoan ayrim fanlar o'zbek (davlat) tilida o'qitilishi mumkin.

16. Mazkur tayanch o'quv reja va tushuntirish xati asosida har bir umumiy o'rta ta'lim muassasasi 2020/2021-o'quv yiliga mo'ljallangan o'quv rejasini ishlab chiqadi va avgust oyidagi Pedagogik kengashning qarori bilan tasdiqlaydi.

17. Pedagog kadrlar salohiyati hamda moddiy-texnika bazasi yetarli bo'lgan umumiy o'rta ta'lim muassasalarida Qoraqalpog'iston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi va viloyatlar xalq ta'limi boshqarmalarining ruxsati bilan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining Pedagogik kengashlariga dars jadvalini tuzishda tayanch o'quv rejadagi umumiy soatlar hajmidan oshmaganda, ma'lum bir fanlarni chuqurlashtirib o'qitish maqsadida 15%gacha o'zgartirish kiritish huquqi beriladi.

Fanlarni chuqur o'rganish bo'yicha fan o'qituvchisi tomonidan ishlab chiqilgan o'quv dasturlaridan amaliyotda foydalanishga O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi huzuridagi Respublika ta'lim markazi tomonidan rasmiy tasdiqlangan taqdirda ruxsat etiladi.

18. Barcha turdagi davlat umumiy o'rta ta'lim muassasalarida mazkur o'quv reja asosida tashkil etiladigan darslar (mashg'ulotlar) davlat budgeti mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun 2020/2021-o'quv yiliga mo'ljallangan tayanch o'quv reja

| T/r | Fan yo'nalishlari va nomlari | Haftalik o'quv soatlari (sinflar kesimida) | | | | | | | | | | | Haftalik umumiy soat |
|------|--|--|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|----------------------|
| | | I | II | III | IV | V | VI | VII | VIII | IX | X | XI | |
| I. | Filologiya fanlari | 10 | 11 | 11 | 11 | 11 | 11 | 10 | 10 | 10 | 9 | 9 | 113 |
| 1. | Ona tili va adabiyot | 8 | 7 | 7 | 7 | 5 | 5 | 4 | 4 | 4 | 3 | 3 | 57 |
| 2. | O'zbek tili/rus tili | | 2 | 2 | 2 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 27 |
| 3. | Chet tili | 2 | 2 | 2 | 2 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 3 | 29 |
| II. | Ijtimoiy fanlar | 1 | 1 | 1 | 1 | 3 | 3 | 4 | 5 | 5 | 4 | 4 | 32 |
| 4. | Tarix | | | | | 2 | 2 | 3 | 3 | 3 | 2 | 2 | 17 |
| 5. | Davlat va huquq asoslari | | | | | | | | 1 | 1 | 1 | 1 | 4 |
| 6. | Tarbiya | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 11 |
| III. | Aniq fanlar | 5 | 5 | 5 | 5 | 6 | 6 | 6 | 6 | 7 | 7 | 7 | 65 |
| 7. | Matematika | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 5 | 55 |
| 8. | Informatika va axborot texnologiyalari | | | | | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 2 | 2 | 10 |
| IV. | Tabiiy va iqtisodiy fanlar | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 6 | 8 | 9 | 9 | 9 | 10 | 57 |
| 9. | Fizika va astronomiya | | | | | | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 3 | 13 |
| 10. | Kimyo | | | | | | 2 | 2 | 2 | 2 | 3 | 3 | 12 |
| 11. | Biologiya | | | | | 1 | 2 | 2 | 2 | 2 | 3 | 3 | 15 |
| 12. | Geografiya va iqtisodiyot | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 2 | 3 | 3 | 1 | 1 | 17 |
| V. | Amaliy fanlar | 4 | 4 | 4 | 4 | 6 | 6 | 6 | 4 | 4 | 3 | 2 | 47 |
| 13. | Musiqa madaniyati | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | | | | | 7 |
| 14. | Tasviriy san'at va chizmachilik | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | 1 | | | 9 |
| 15. | Texnologiya | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 2 | 2 | 1 | 1 | | | 12 |
| 16. | Jismoniy tarbiya | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 2 | 1 | 17 |
| 17. | Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik | | | | | | | | | | 1 | 1 | 2 |
| | Jami | 21 | 22 | 22 | 22 | 28 | 32 | 34 | 34 | 35 | 32 | 32 | 314 |

Tijorat huquqi asosida

Ta'lim va amaliyot uyg'unligi

yoshlarning ma'nan yetuk bo'lib shakllanishida muhim rol o'ynamoqda



"Talaba-yoshlarimizning aql-idroki ongini tashqi, nosog'lom axborot xurujlaridan asrashimiz kerak".

Keyingi yillarda yosh avlodga oid davlat siyosatining huquqiy asoslari mustahkamlanib borayotgani quvonarlidir. Masalan, Yoshlar masalalari bo'yicha respublika idoralararo kengashi tuzildi. O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etilib, 30-iyun — Yoshlar kuni deb e'lon qilindi. Yangilanishlarni bugun yoshlar ittifoqining bir yacheykasi hisoblangan Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi institutida bakalavr va magistrantlardan iborat o'qib-izlanayotgan 4 393 nafar yosh — yigit-qizlarning ertangi kunga ishonchli misolida ham ko'rishimiz mumkin.

"Yangi O'zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz. 2020-yil yoshlarga oid davlat siyosatida tub burilish yili bo'ladi", deya Prezidentimiz 2019-yilning 27-dekabr kuni Muhammad al-Xorazmiy nomidagi maktabda o'quvchi-yoshlar bilan uchrashuvda ta'kidlagan edi. Ochiq muloqot tarzida o'tgan mazkur uchrashuvda navqiron avlod vakillari o'z fikr-mulohazalarini bildirishgandi. Davlatimiz rahbari ularning takliflari bo'yicha mutasaddilarga topshiriqlar bergan edi. Yoshlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan ushbu topshiriqlar ijrosini ta'minlash maqsadida Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash,

qurish va ekspluatatsiyasi institutida o'tgan yilning 27-dekabr joriy yilning 17-fevral kuni qadar amalga oshirilishi belgilangan tadbirlar rejasini ishlab chiqilgan edi. Xo'sh, bu rejalar ijrosi oliy o'quv yurtida qanday bajarildi? Shunchaki qog'ozda yoki muhokama qilingan o'sha davrada qolib ketmadimi? Mazkur chora-tadbirlar rejasida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan shu kunga qadar mazkur ilm maskanida va talabalar turarjoylarida talaba-yoshlar bilan 12 marotaba ma'naviy-ma'rifiy tadbir, institut rahbariyati va avtomobil sohasi mutaxassislari bilan uchrashuvlar, 2 ta sport musobaqasi va 2 ta tanlov tashkil etildi.

Shuningdek, madaniyat xodimlari hamda avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi sohasi mutaxassislari hamda hamkor tashkilotlar ishtirokida 8 marotaba "Rektor va yoshlar" uchrashuvi fakultetlar va kurslar kesimida o'tkazildi. Maqsad — yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish borasidagi islohotlardan talaba-yoshlarning xabardorlik darajasini oshirish bo'ldi. Oliy ta'lim muassasasida "Yangi O'zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz" mavzusida O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vaziri maslahatchisi, general-polkovnik Zokirjon Almatov, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti Yodgor Sa'diyev va O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari qo'mitasi mutaxassislarini qayta tayyorlash bo'limi boshlig'i Doniyor Musayev ishtirokida o'tkazilgan uchrashuvlar yanada esda qolarli bo'ldi. Har qanday oliy dargoh istiqboli, eng avvalo, siyosiy, ma'naviy, qolaversa, huquqiy bilimlarning talaba-yoshlar ongida qay darajada shakllangani bilan belgilanadi. Institutda korrupsiya va u bilan

bog'liq illatlarning oldini olish maqsadida Toshkent davlat yuridik universiteti "Fuqarolik huquqi" kafedrasida dotsentlari L.Burhonova va I.Shorahmedovanning ma'ruzalari talabalarda katta taassurot qoldirdi. Ushbu tadbirlardan olgan taassurot va ko'nikmalar asosida talabalar o'zlarini sinab ko'rish maqsadida xalq orasiga kirdi. Institutning "Ijtimoiy fanlar" kafedrasida professor-o'qituvchilari bilan birga poytaxtimizning Mirobod tumanidagi "Abdurauf Fitrat" "Yuksalish", Olmazor tumanidagi "Yuqori Sebzor" mahallalarida "Huquqiy savodxonlik va huquqiy madaniyatni yuksaltirish" mavzusida targ'ibot tadbirlari tashkil etildi. Xalqimiz vakillari bilan bunday uchrashuvlarda ustozlari yonida talabalar ham turgani



ta'lim-tarbiyaning o'zi bilangina marraga yetish qiyin. Milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda yoshlarni mehnatsevarlikka o'rgatish, huquqiy barkamollikka erishtirish masalasi ham alohida e'tibor qaratish talab etiladi. — Bunda, eng avvalo, katta umid, orzu-maqсадlar bilan, Vatanim taraqqiyotiga hissa qo'shaman, deb, belini mahkam bog'lab, ilm sirlarini egallayotgan shijoatli yoshlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash asosiy vazifamizdir, — deydi institut rektori Alimjon Risqulov. — Chunki ertangi kunimiz, yurtimizning ertangi taqdiri shu talaba-yoshlarga bog'liqligini bir soniya ham unutmashimiz zarur. Darvoqe, inson hamisha moddiy va ma'naviy boylikdan tashqari, talaba-yoshlarimizning aql-idroki, ongini tashqi nosog'lom axborot xurujlaridan asrashimiz kerak. Chunki har xil noxush holatlar: axloqsizlik, o'g'irlik, yolg'onchilik, giyohvandlik kabi illatlar mavjud ekan, talaba-yoshlar ongini ana shu holatlardan asrash ehtiyoji tug'ilaveradi. Buning uchun O'zbekiston Respublikasi Avtomobil yo'llari qo'mitasi bilan hamkorlikda joriy yilning 2-fevralida muassasaning 8-talabalar turarjoyida "Yangi O'zbekistonni, albatta, yoshlar bilan birga quramiz" shiori ostida institutimiz professor-o'qituvchilari hamda xodimlari, talaba-yoshlar o'rtasida futbol, stol tennis, shaxmat, shashka, tosh ko'tarish, arqon tortish, voleybol bo'yicha sport musobaqalari o'tkazildi. Shuningdek, joriy yilning 4-fevral kuni institutda 2019-yilda bajarilgan ilmiy-innovatsion ishlanmalar ko'rgazmasi va tanlovi bo'lib o'tdi. Unda "Eng yaxshi to'g'arak", to'g'arak a'zolari esa "Eng faol to'g'arak a'zosi", "Eng faol sport to'garagi a'zosi", "Eng faol yosh tadbirkor" nominatsiyalari bo'yicha o'zaro bellashdilar. Jamiyatimizda ro'y berayotgan ijobiy o'zgarishlar tufayli ushbu dorilomon kunlar qadriga yetishimiz lozim. "Jaholatga qarshi ma'rifat" mavzusida O'zbek-

iston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi Mirobod tumani bo'limi rahbari Yoqutxon Hakimova, Mirobod tuman "Nuroni" jamg'armasi raisi Habibulla Mansurov, Mirobod tuman Mahalla kengashi raisi o'rinbosari G'anisher Eshonqulov, Mirobod tumanidagi "Al-Badr" jome' masjidi bosh imom-xatibi O.Xolmurodov ishtirokida o'tkazilgan tadbirlar ham institut talaba-yoshlarini Vatani ravnaqi va xalq farovonligi uchun hissa qo'shishga undadi. Shuningdek, Prezidentimizning Oliy Majlisga yo'llagan Murojaatnoma-si mazmun-mohiyatini yoshlarga yetkazish maqsadida Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Sanoat, qurilish va savdo masalalari qo'mitasi a'zolari ishtirokidagi uchrashuv va "Botanika bog'i"da o'tkazilgan ommaviy tadbirlar ham yigit-qizlar xotirasida bir umr saqlanadi. Ta'kidlash zarurki, muassasa professor-o'qituvchilari safiga 24 nafar yosh jalb etildi. Ayni kunda 13 nafar talaba xorijda malaka oshirib qaytdi, 6 nafar bitiruvchi esa xorijiy oliy ta'lim muassasalarida magistraturada, 3 nafari doktoranturada tahsil olmoqda. Yoshlarning bitiruv-malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalari va doktorantlarga ilmiy rahbarlik qilish uchun ilmiy-tadqiqot va loyihalash institutlaridan 23 nafar yetuk mutaxassis jalb etildi. Iqtisodiyot tarmoqlari talablari asosida bitta yangi ta'lim yo'nalishi va yana bitta yangi magistratura mutaxassisligi ochildi. O'quv jarayoniga 21 nafar xorijlik professor-o'qituvchi va mutaxassis jalb etildi. Belarus milliy texnika universiteti bilan hamkorlikda qo'shma ta'lim dasturi (2+2) asosida 4 ta ta'lim yo'nalishi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yildi. Muhimi, tayyorlanayotgan kadrlar buyurtmachilarning talablaridan kelib chiqmoqda. Qator magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari va o'quv rejalarini, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida fan dasturlari takomil-




lashtirildi va o'quv jarayoniga tatbiq etildi. Xorij tajribasi asosida yo'l qurilish obyektlarida talabalar amaliyotini yangicha uslubda tashkil etish yo'lga qo'yildi. Buning uchun amaliyotchi talabalarga 2 dona "ISUZI" avtobusi ajratildi. "AVTOYO'LSIFAT" ilmiy-tadqiqot va ishlab chiqarish unitar korxonasi hamda Yevropa ittifoqining TEMPUS dasturi doirasida "Avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion sifatlarini tadqiq etish o'quv-ilmiy laboratoriyasi tashkil etildi. Ishlab chiqarish korxonasi va tashkilotlarida 2 ta mutaxassislik kafedrasini filiali tashkil etilib, dars jarayonlari yo'lga qo'yildi. Shuningdek, "Shahar yo'llari va ko'chalari" kafedrasini tashkil etildi. Natijada takomilga yetgan fan dasturlari asosida ehtiyojdan kelib chiqib, yangi o'quv adabiyotlari, shu jumladan, 7 ta darslik va 3 ta o'quv qo'llanma yaratildi. O'quv rejalaridagi mavjud fan-



Albatta, yoshlarga puxta bilim berish uchun ilm dargohining sharoitlari yaxshi bo'lishi kerak. Investitsiya loyihalari asosida institutning "A" blogida 12 milliard 826 million so'mlik rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, institutning o'z mablag'lari hisobidan "V" blogidagi o'quv-laboratoriya xonalari 258,7 million so'mga ta'mirlanib, 200,3 million so'mlik o'quv va laboratoriya uskunalari bilan jihozlandi. Axborot-resurs markazi o'quv zalida 144,6 million so'mlik, 240 o'rinni 5-talabalar turarjoyida 294,9 million so'mlik joriy ta'mirlash ishlari amalga oshirildi. Jami 647,1 million so'mlik kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya vositalari, jumladan, 52 ta kompyuter texnikasi, 9 ta noutbuk, 16 ta printer, 15 ta proyektor, 9 ta WiFi quurilmalari xarid qilindi.



Talabalar turarjoylarida 5 tashabbus doirasida har bir tashabbusga moslashtirilgan xonalar tashkil etildi. Masalan: — 1-tashabbus doirasida 1 ta "Chinor" talabalar teatr studiyasi, 4 ta "Quvnoqlar va zukkolar" klubi hamda 1 ta "Yosh havaskorlar" ansambli faoliyati yo'lga qo'yildi; — 2-tashabbus doirasida "Avtomobilchi" sport klubi, 4 ta sport to'garagi tashkil etildi, darvoqe, 1 nafar talaba Osiyo chempionligini qo'lga kiritdi; — 3-tashabbus doirasida kompyuter savodxonligi hamda "AutoCAD" dasturi bo'yicha 3 ta tanlov o'tkazildi. Talabalar turarjoylari 10 ta kompyuter, 7 tadan WiFi rotor uskunalari bilan ta'minlandi. Bepul Wi-Fi zonalarini tashkil etildi; — 4-tashabbus doirasida esa "Eng faol kitobxon" tanlovi, guruhlar o'rtasida tadbirlar, kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha institut miqyosida kitob yarmarkalari, "Kitob ulash" aksiyasi o'tkazildi; — 5-tashabbus doirasida qizlarning ijodiy va fan to'garaklariga qamrovi 33 foizdan 69 foizga oshirildi. Xullas, yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida Toshkent avtomobil yo'llarini loyihalash, qurish va ekspluatatsiyasi institutida ibratli ishlar amalga oshirilmoqda. Muhimi, muassasada yoshlarning ma'nan yetuk bo'lib shakllanishida ta'lim va amaliyot uyg'unligining uzviyligi ta'minlangan. Bu esa millatimiz istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli kadrlar tayyorlash borasida alohida tizim yaratilayotganini ko'rsatmoqda.



Ota-onalarga

Bugundan oq kirishing!

Hozirgi kunda nafaqat maktab, litsey o'quvchilari, oliy o'quv yurtlari talabalariga, balki turli sohalarida ishlovchi xodimlarga ham chet tillarni, xususan, ingliz tilini o'rganish suv va havodet zarur. Sababi iqtisodiy, fan va madaniy jihatdan rivojlangan davlatlarning tillarini o'rganish jahon ilm-fani va taraqqiyoti yutuqlarini egallashning bosh omilidir.

Psixologlarning fikricha, bolalar kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradi, chunki ularda taqlid xususiyati kuchli. Odatda, ular ma'lumotlarni ma'nosini tushunmay, mexanik tarzda yodlaydi. Siz chet tilini bilmasangiz-da, bolangiz bilan bemalol shug'ullanishingiz mumkin. Bu jarayonda tilni tezda o'rganish uchun quyidagi samarali usullardan foydalanish darok. Eng avvalo, kerakli manbalar zarur: rangli rasmlar, lug'atlar, kitoblar va stikerlar. Internet saytlaridan esa so'zlarning talaffuzini o'rganish va o'rgatish uchun audio, video, mashq daftarlar hamda elektron kitoblarni yuklab olasiz. Hozir zam-

onaviy qo'l telefonlarida bolalar turli ko'nikmalarni o'rgatish uchun yaratilgan turli app dasturlar ham mavjud:

- Eng kerakli va oson mavzularni kunlarga bo'lib, rejalashtirib oling. Masalan, uy jihozlarning nomlarini o'rganishga 5 kun ajrating. Uyingizdagi jihozlarga ularning chet tilidagi nomlarini yozib, yopishtirib chiqing va belgilangan vaqtda bolalarga o'sha jihozlarning chet tilidagi nomlarini aytib murojaat qiling. Bu ularning xotirasida tezda muhrlanadi.

- Inglizcha multfilm — garchi bolalar multfilmidagi so'zlarni tushunmasa-da, qahramonlarning harakatlariga qarab,

ularning nutqini ilg'ashga harakat qiladi. Bu ular uchun juda qiziqarli usuldir.

- Qo'shiqlar — bolalar uchun oson va quvnoq qo'shiqlardan foydalanish, matnini takroran eshitganda beixtiyor yod olish, talaffuzini to'g'ri rivojlantirishga xizmat qiladi.

- Amaliy mashg'ulotlar — biror buyumni birgalikda yasash, taom tayyorlashda ko'maklashish, sayohatlar va rasmlarni bo'yash bolalarda chet tilini haqiqiy kichik muhitda his etishlariga yordam beradi va qiziqishini oshiradi.

Bu orqali siz farzandingiz ta'lim-tarbiyasi va bilim olishida ustozlari qatorida o'z hissingizni qo'shgan bo'lasiz! Qolaversa, farzandingizga vaqt ajratib, u bilan shug'ullanishingiz bolada ichki ishonchni, motivatsiya va itilishni rivojlantiradi. Ularning kelajakdagi har bir yutuq va muvaffaqiyatlarining poydevorini aynan siz barpo etasiz. Farzandingiz bilan til o'rganishdek qiziqarli va samarali jarayonni bugundan boshlang!

Mehriniso NOROVA,
Narpay tumanidagi
47-maktabning ingliz tili fani
o'qituvchisi

O'ynab o'rganamiz!

What colour do you like?

Har bir pedagog uchun ulkan kasbiy muvaffaqiyat bu o'quvchilar uning darsini intilqlik bilan kutishi, berilgan topshiriqlarni astoydil bajarishi va darsda har birining faol ishtirok etishidir. Bu yutuqlarga erishish uchun o'qituvchida yetuk salohiyat, mahorat, bilim va ijodkorlik mujassam bo'lishi kerak. Darslarning qiziqarli o'tishida interaktiv usullarning o'rni beqiyos. Ayniqsa, bog'chada jo'shib o'ynab yurgan bola uchun dars zerikarli va mashaqqatli jarayonga aylanib qolmasligi lozim. Dars jarayonini mavzudan kelib chiqqan holda shunday tashkillashtirish kerakki, o'quvchi ham bilim olsin, ham o'ynasin.

Masalan, 1-sinf I chorakda o'quvchilarga "Colours"(Ranglar) mavzusi berilgan. O'quvchilar ranglarni mukammal o'rganishlari uchun darsning mustahkamlash qismida yoki "Let's, play" darslarida quyidagi usullar va TRP (Total Physical Response) metodidan foydalanish mumkin.

1-usul. Sinfxonaning istalgan qulayroq qismiga rangli qalamlar yoki rangli qog'oz parchalari qo'yiladi. Doskaga 5-6 o'quvchi chiqariladi. Ulardan biri mushuk rolini o'ynaydi va teskari qarab o'tiradi, qolgan o'quvchilar esa undan "Cat, cat! What colour do you like?" deb so'raydi. Mushuk rolidagi o'quvchi biror-bir rangni aytadi, masalan, "I like pink". Shunda o'quvchilar yugurib borib aytilgan rangdagi qalam yoki qog'oz parchasini olib keladi. Birinchi va to'g'ri topib, olib kelgan o'quvchi mushuk rolidagi o'quvchi bilan o'rin almashadi. Bu o'yin orqali nafaqat ranglar, balki "What colour do you like?", "I like..." iboralari ham xotirada mustahkamlanadi.

2-usul. Bu metodda o'quvchilar juftlik tarzida ishlaydi. Juftliklarga bo'yalmagan bir xil tasvirdagi kapalak rasmlari tarqatiladi. O'qituvchi har bir juftlikka har xil rang aytadi. Juftliklar o'z kapalaklarini o'qituvchi aytgan rangga bo'yaydi. Bo'yalgan kapalaklar doskaga yopishtiriladi. So'ng ikki o'quvchi doskaga chiqadi va ularning har biriga pashshaug'ich beriladi. O'quvchilar tezkorlik bilan o'qituvchi ingliz tilida qaysi rangni aytsa, o'sha rangdagi kapalak ustiga qo'llaridagi pashshaug'ich bilan urib ko'rsatadi.

3-usul. O'qituvchi o'quvchilardan rangli qalamlari solingan qalamdonlarini oldirlariga qo'yishni so'raydi. So'ng ingliz tilida aytilgan rangdagi qalamni topib ko'rsatishini aytadi. Yuqoridagi usullar qaysi o'quvchi qaysi rangda qiynalayotganini aniqlash va uni bartaraf etishda yordam beradi hamda bo'sh o'zlashtirayotgan o'quvchilarning ham darsda faol ishtirokini ta'minlaydi.

Latofat KARIMOVA,
Sirg'ali tumanidagi 322-maktabning
ingliz tili fani o'qituvchisi



Boshlang'ich sinf o'quvchilari tasavvur qilish orqali erkin fikr yuritadi. Shuning uchun darslarda o'yinlardan tez-tez foydalanib turish kerak. Chunki bolaga berilayotgan bilimni o'yinlar vositasida singdirish quruq qoida yodlash va surunkasiga mashq bajartirishga nisbatan qiziqarli va bu bolaning xotirasida yaxshiroq saqlanadi.

"O'ylab top" metodi

O'yinlar tashkillashtirganda, avvalo, bolaning yosh xususiyatini hisobga olish lozim. Ayniqsa, 1-sinfda talaffuz etilishi qiyin bo'lgan tovushlar ishtirokida "O'ylab top" o'yinini o'tkazish yaxshi samara beradi.

Bu o'yin ovoz, havo yo'li ishlashini me'yoriylashtirish, tovushlarni (ayniqsa, r, sh, t, z, s) to'g'ri talaffuz etish va eshitishni mustahkamlashga oid. O'quvchilar dars davomida o'tilgan harflarni qay darajada o'zlashtirib olganligini sinash maqsadida o'qituvchi bu o'yinda kesma harflardan foydalanadi. O'qituvchi "r" tovushi ishtirok etgan bo'g'inlardan aytadi (ar, ran, ro). O'quvchi shu bo'g'inlarga ikkinchi (ra, da, bi) bo'g'inini qo'shib arra, randa, Robi kabi so'zlarni hosil qiladi. O'yin davomida faol o'quvchilar g'olib hisoblanadi. Bu o'yinni keyinchalik boshqacharoq o'tkazish ham mumkin. Bunda o'quvchilardan biri boshqa o'quvchiga qarab bir necha so'zni (bog', kitob, bayroq, g'oz kabi) ovoz chiqarmay aytadi. O'quvchilar esa qanday so'z aytilganini lab harakatidan topishga harakat qiladilar. Kim so'zni topsa, o'sha o'quvchining o'miga o'tiradi va u endi boshqa bir so'zni ovoz chiqarmay aytadi, o'yin shu tariqa davom etaveradi. Bunday o'yinlar o'quvchilar diqqatini jamlashga xizmat qiladi, ularni hozirjavoblikka o'rgatadi.

Maktab ostonasiga ilk bor qadam qo'ygan bolaning diqqati ixtiyorsiz bo'ladi. Boladagi ana shu odatni bartaraf etish va uning diqqatini asosiy maqsadga qarata bilish biz o'qituvchilarga bog'liq. O'yin o'tkazishdan oldin ma'lum maqsadni belgilab olishimiz, uni mazmunli va qiziqarli o'tkazish uchun doim ijodiy izlanishda bo'lishimiz lozim.

Yulduz IBROHIMOVA,
Pitnak shahridagi
9-maktab o'qituvchisi



Maktab partasida o'tirgan bolalarimizning barchasi tilshunos bo'lishi kerakmi? Aziz hamkasbim, Hurmatli ustozjonlar! Onadek mo'tabar tilimizning ta'limi bilan shug'ullanayotgan jonfido muallimjonlar!

Sizning mehnatlaringizni, aslida, hech bir tosh-u tarozi bilan o'lchab bo'lmaydi. Ba'zan o'z farzandiga ham toshmehr odamlarga duch kelamiz, shundaylar haqida o'qib qolamiz. Albatta, yoqa tutib aytamiz: "Inson zoti shunday bo'lishi mumkinmi?". Siz maktab partasida o'tirgan yuzlab bolalarga mehr ko'rsatasiz, bilim berasiz. Ularning yorqin kelajagi uchun qayg'urasiz. Fidokorlikni o'rgatasiz va fidoyilikda namuna bo'lasiz. Tanlagan kasbimizning mashaqqati ham, sharaflari ham shunda bo'lsa kerak. Zero, "Bir soatlik ilm o'rgatmoq, yuz soatlik toat-ibodatdan ko'ra yaxshiroq" ekanligi bizning amaliy faoliyatimiz negiziga aylangan. Demak, qilayotgan ishimiz savob, savob va yana savobdan iborat. Shundaymikan?!

Keling, aziz hamkasbim, gapni uzoqroqdan boshlaylik. Biz ona tili ta'limi bilan shug'ullanamiz. Ona tili — (ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan) maktabda barcha o'quv predmetlarini ham o'rganish, ham o'rgatish vositasi. Tili o'zbek tilida chiqqan, o'z ona tilida so'zlashadiganlar uchun bu tafakkur tili hamdir. Demak, dunyoning lisoniy manzarasini har bir o'zbek o'zi uchun ona tili vositasida bunyod etadi, tom ma'noda, ona tili xazinasiga ega bo'ladi va umri davomida bu tunganmas xazinanadan foydalanaveradi, foydalanaveradi...

Vaholanki, bu yorug' olamda inson istalgan davraga so'zi orqali kirib boradi, uning ortida ham so'zi qoladi, inson so'nggi nafasida ham lablari pichirlab so'z aytadi. (Hatto tushlarimizni ham ona tilimizda ko'ramiz.) Biz kalam ilmining ta'limi egalari va har bir o'zbek uchun tafakkur tilining targ'ibotchilari ekanligimizni inkor etib bo'lmaydi.

Aytaylik, sizning o'quvchingiz (o'g'il bola) maktabni o'rtacha baholarda o'qib tugatdi. Oliy ta'limga hujjat topshirdi, shartnomaga ilinishiga ham 5-10 ball yetmay qoldi. (Qo'shimcha to'lov asosida o'qishi uchun oila budjeti "to'g'ri kelmadi"). Xo'sh, bola endi nima ish bilan shug'ullanadi?! (Siz-u biz bu savolga javob berolmasligimizni bilaman.) Deylik, o'sha o'quvchingizning bobosi: "Bolam, er kishisan. Oilaga yordam berishni o'rgan. Har kuni halol mehnat qilib uyga ikkitaгина non kiritsang ham, katta gap. Hayotni, odamlar bilan muomalani o'rgan" deb, kichikkina arava yasatib berib bolani bozorga chiqardi...

Bugun bolaning aravasiga hech kim yuk o'tmadi. Qorni ochgan bola non do'koniga kirsas, bitta obinon 1.200 so'm va bitta buxanka non 1.700 so'm turibdi. Bolaning cho'ntagida ming so'm puli bor. Bitta obinon sotib olishiga (arzimas pul) 200 so'm yetmaydi. Sobiq o'quvchingiz non do'konidagi amakiga (yoki opaxonga) deyapti: "Men ergashgan qo'shma gaplarning besh turini bilaman. Undalmali gaplar haqida bilaman. Fe'ning ma'noviy guruhlarini sanab beraymi? Kesim, ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi haqidagi qoidalarni aytib beraymi? Holning olitita turini aytaymi? Ajratilgan izoh bo'laklar...Unli, undoshlarning til oldi va til orqaligi, lablangan-lablanmaganligi, quyi keng, o'rta keng, yuqori torligi, til undoshning lablab, lab-tish, til oldi, til yoni, til o'rta, til orqa tovushining yaqin til orqa, chuqur til orqaligi..."

O'quvchi non olishi uchun yetmayotgan 200 so'm uchun sizning 5-sinfdan 11-sinfga (naq 7 yil) o'rgatganlaringizdan "madad

Dunyoning lisoniy manzarasini har bir o'zbek o'zi uchun ona tilisi vositasida bunyod etadi, tom ma'noda, ona tili xazinasiga ega bo'ladi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarning ona tili o'qituvchilariga ochiq xat

so'radi". Tabiiyki, non sotuvchi 200 so'm kamiga non sotmaydi va bolani telbalikda ayblab haydab soladi.

Aziz ustozjon!

Sizing maktabda 7 yil davomida mash-aqqat chekib, o'quvchini sinfga qamab o'rgatgan son-sanoqsiz qoidalaringiz bolaning bir martagina qornini to'yg'azishi uchun ham yaramadi-ya?!

Tahlil: Amaldagi maktab "Ona tili" darsliklariga e'tibor beraylik. Xo'sh, ularda ("Bilib oling", "Esda tuting" shaklidagi) qancha grammatik qoidalar berilgan?

5-sinf "Ona tili" darsligida – 192 ta;
6-sinf "Ona tili" darsligida – 194 ta;
7-sinf "Ona tili" darsligida – 117 ta;
8-sinf "Ona tili" darsligida – 51 ta;
9-sinf "Ona tili" darsligida – 40 ta;
10-sinf "Ona tili" darsligida – 26 ta;
11-sinf "Ona tili" darsligida – 25 ta.
Jami: 645 ta.

Ammo bu hali hammasi emas. Agar 9-, 10-, 11-sinf "Ona tili" darsliklarida berilgan qoidalarning har biri 1-1,5 sahifa egallashini inobatga olsak, ular miqdori o'rtacha uch barobarga oshadi. (Bu umumiy qoidalar miqdorining 800 dan oshishini ko'rsatadi.)

Hadisi shariflardan birida shunday deyiladi: "Ilmga rag'bat bo'lmagan kishiga ilm o'rgatmoq — gunohga botmoq, behuda ilm o'rgatmoq esa ikki karra gunohga botmoqdir." Biz o'quvchilarimizga behuda ilm o'rgatmayapmizmi?! Professor B.Mengliyev ta'bir bilan aytganda: "Maktabda yoshlarimiz ona tili mashg'ulotlarida boshi ham, adog'i ham yo'q, buning ustiga darslikdan darslikka o'tish, sinfdan sinfga ko'chish bilan keskin o'zgarib turadigan son-sanoqsiz ilmiy (lingvistik) qoidalarni yodlashga majbur bo'lishayotganligi" bolaga nima beryapti?!

Biz qachon o'quvchilarimizga til o'rgatish bilan tilshunoslik asoslarini o'rgatish masalasini farqlab olamiz? Qachongacha bolalarimizga "keraksiz ilmi o'rgatib" ilm o'rgatmoq savobidan behura qolaveramiz?

Agar bilsangiz, o'quvchi uchun umr bo'yi kerak bo'ladigan 3 toifadagi qoidalar bor (men buni takror ta'kidlayapman). Bular:

1) orfografiya qoidalari (bu qoidalar umr bo'yi kishining yozma savodxonligini tartibga solib turadi);

2) orfoepiya qoidalari (bu qoidalar umr bo'yi kishining og'zaki nutqini adabiy me'yorga moslashtirib turadi);

3) punktuatsiya qoidalari (Bu qoidalar umr bo'yi kishining yozma nutqida nima demochiligini ko'rsatib turadi).

Qolgan barcha qoidalar mutaxassis sifatida biz uchun, o'zimiz uchun zarur.

Yana ta'lim berishda nega buncha darslikka "yopishib oldik"? Darslik nima o'zi?! Darslik, avvalo, didaktik ta'lim vositalaridan biri. Didaktik ta'lim vositalari deganda ta'lim jarayonida ishlatiladigan, foydalaniladigan barcha vositalar — darslik, o'quv qo'llanma, metodik tavsiyalar-u ishlanmalar, ko'rgazmalar, ko'rsatmal va tarqatma materiallar, testlar, nstandart topshiriqlar, lug'atlar, ma'lumotnomalar, qomuslar majmuyi tushuniladi.

Biz qanday darsliklar bilan ishlashni istayapmiz? Albatta, dastur asosida tuzilgan, ta'lim mazmunini aks ettiruvchi o'quv materialini ham, uning o'quvchi tomonidan o'zlashtirilish usullarini ham, ta'lim oluvchi va ta'lim beruvchi uchun zarur sanalagan tahlil (analiz), umumlashtirish (sintez) uchun

materialini ham, o'quv materialidagi tarqoq hodisalarni bir-biriga bog'lovchi qonuniyatlarini ham o'z ichiga olgan, bir so'z bilan aytganda, ta'lim oluvchi uchun ma'lum miqdordagi bilimlarni, malaka, ko'nikma, odatlarni o'ziga singdirish uchun tayanch manbani istayapmiz.

Aziz hamkasbim!

Darslik (muayyan o'quv predmeti ta'limidan kutayotgan natijamizga qarab) ta'lim maqsadi, mazmuni va usuli bilan uzviy bog'liqlikda har xil bo'ladi. O'quvchiga qoida-yu ta'riflar asosida ma'lum miqdordagi bilimlarni berishga mo'ljallangan darslik o'quvchi o'zlashtirishi nazarda tutilgan bilimlar va hosil qilinishi kerak bo'lgan malaka hamda ko'nikmalarni deyarli to'la qamrab oladi va bu holatda o'quv materialini, asosan, darslik bilan cheklanadi. Maqsad bitta: o'quvchi darslik materialini bilsa bas. Bunday darslik bilan ishlash tom ma'nodagi ijodiy tafakkurni shakllantirish va rivojlantirishga to'g'ri qilinadi.

Darslik topshiriqlar tizimida o'quvchining mustaqil izlanishi uchun yo'llanmalar berib bog'anda, ta'lim oluvchining axborot banklariga doimiy murojaatini talab qilganda, uni ijodiy faoliyatga undagandagina u o'z maqsadiga erishishi mumkin. Shuning uchun darslik bilan dars davomida ta'lim oluvchi bajarishi lozim bo'lgan topshiriqlar tizimi(algoritmi)ni va zaruriy o'quv materialini aralash-tirmaslik lozim. Biz hozir darslik deganda ham mavzu talqini, ham o'quv materialini, ham ta'lim oluvchi bajarishi lozim bo'lgan amaliyotlar va ularning tartibini ham, ta'lim oluvchi kelishi kerak bo'lgan yechim(xulosa)ni ham o'z ichiga olgan majmuan tushunayapmiz.

Haqiqiy ijodiy tafakkur sohibini shakllantirish va rivojlantirishga mo'ljallangan darslik yuqorida zikr etilgan darsliklardan farq qilmog'i lozim; yangi maqsadlar uchun yangi turdagi darsliklar zarur. Eski qolipda yozilgan darsliklardan xalos bo'lmay, bolalarimizni yangicha fikrlashga o'rgatish mumkin emas. Yangicha o'qitishda, ijodiy tafakkur sohibini yetishtirishda o'quv materialini darslik materiallaridan ancha keng bo'lmog'i shart. Jumladan, ona tilidan darsliklar o'quvchilarga xilma-xil lug'atlardan (axborot banklaridan), qomuslardan, ma'lumotnomalardan, maktabda o'qitiladigan boshqa o'quv predmetlari bo'yicha olgan bilimlari va ma'lumotlaridan, tajribali kishilar(o'quvchilarning yaqinlari)dan ko'shimcha material olishga, bu — darslikda berilmagan material ustida ijodiy ishlar tizimini loyihalashtirgan taqdiridagina ko'zlagan maqsadiga erisha oladi. Aks holda, u o'quvchi oyoq-qo'lga kishan, tafakkuriga g'ov bo'ladi.

Bu borada amaldagi yangi 8-sinf "Ona tili" darsligida bir qadar ijodiy o'zgarishlar seziladi. Darslikdagi milliyilgimiz zaminidan uzilmagan, tarbiyaviy ahamiyati beqiyos matnlarning, fikr-u mulohazalarning o'quvchi hukmiga havola etilishi, shuningdek, "behuda qoidabozlik"larning 5-, 6-, 7-sinf "Ona tili" darsliklariga nisbatan o'rtaucha uch barobar qisqargani, baralla aytish zarurki, quvonarli hol.

Yangi maqsadga yangi turdagi darslik, yangicha mazmun, yangicha usul va vositalar olib kelishi va yangi shaxsni — tadbirkor, axborot manbalarini chuqur biladigan, undan o'ziga kerakli ma'lumotlarni tez topa oladigan, bu ma'lumotlar ichida o'zi yashab turgan muayyan sharoit uchun eng qulay va serunumidan foydalana oladi-

gan tezkor tadbirkor shaxsni yetishtirishni ta'minlashi mumkin. Shuning uchun yangi darsliklar mashqlar majmuasidan emas, balki topshiriqlar tizimidan iborat bo'lmog'i kerak. Lekin bunday darslik bilan ishlash uchun ta'lim ishtirokchilari ona tilidan ta'lim jarayonida zarur bo'lgan axborot banklari bilan to'la ta'minlangan bo'lishi kerak.

"Ma'rifat" gazetasining joriy yil 19-fevral soni "Ona tilimizning nufuzini oshirish mavsumiy masala emas" shiori ostida to'ralig'icha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni ijrosiga bag'ishlanganligi kishini sevintiradi. Shu sondagi bir maqolada: "Bu vazifalar(8-sinf yangi "Ona tili" darsligi topshiriqlari — izoh bizniki)ni bajarishi uchun "O'zbek tilining sinonimlar lug'ati", "O'zbek tilining izohli lug'ati" zarur. Muammo shundaki, bu kabi lug'atlar o'quvchilar tugul, hatto ko'pchilik o'qituvchilarda ham yo'q! Internetdan topib yoki elektron nusxalardan foydalanish mumkin, ammo ulardan dars jarayonida foydalanish uchun hamma o'qituvchida yoki maktablarda imkoniyat mavjudmi?!" degan mulohaza meni o'ylantirdi. Negaki, bugun maktab o'quvchilari uchun mo'ljallab tayyorlangan lug'atlar-

tayyorlagan mahsulotingdan ming-minglab kishi foydalanadi. Ta'lim oluvchi sen darslikda "chizgan chiziq" asosida bilim oladi va uning natijasi kamida 10–15 yilda jamiyatda "balqib chiqadi". Masalan, maktab ona tili mashg'ulotlari o'z vazifasi — barcha darslar amaliy xarakterda bo'lib ularda o'quvchini so'z mantig'ini anglash, so'z va birikmalarni o'z o'mida qo'llay olish malaka va ko'nikmalarini, shuningdek, sharqona nutq odobini o'rgatish o'miga qoidabozlikka o'tib ketdi. (Go'yo maktab partasida o'tirgan hamma o'quvchi tilshunos bo'lishi shartday?! Natija nima bo'ldi? Natijada ona tili mashg'ulotlari hayotdan deyarli uzilib qoldi. O'quvchi tarbiyasidagi o'rinni boy berdi...

Zero, umumta'lim maktablarida o'qitiladigan ona tili darslari o'quvchiga tilshunoslik asoslarini emas, tilning cheksiz imkoniyatlaridan foydalanishni, ya'ni tilni o'rgatishi zarur.

Shu o'rinda Respublika ta'lim markaziga ham ba'zi e'tirozlarimiz bor. Nega darsliklar tuzishda rivojlangan mamlakatlarda(masalan, Yaponiya, Turkiya, Fransiya, Rossiya va b.)ning tajribalari maxsus o'rganilmayapti? Nega maktab darsliklarini tuzish va amaliyotga tatbiq etish tanlovlari anonim tarzda o'tkazilmaydi? (Ya'ni tayyor-

langan darslik mutaxassis-ekspert tekshiruvidan keyin alohida tanlab olinmagan maktabning eksperiment sinfi amaliyotida omilkor o'qituvchilar tomonidan (mualliflari sir saqlangan holda) sinab ko'rilmayapti?) Nega yangi darsliklarning mualliflari kim bo'lishi avvaldan ma'lum? "Maktab darsliklarini tayyorlashga faqat soha olimlari yoki professorlar haqli" degan yozilmagan, ammo rad etilmayot-

gan qonunlardan voz kechish payti allaqachon yetmadimikan?! Bugun darsliklar tuzish borasida "kim deganiga emas, nima deganiga boq'aylik.

Hurmatli hamkasbim!

Siz bugun maktab "qozonida qaynayapsiz". O'quvchiga nima kerakligini boshqarlardan ko'ra SIZ ko'proq his etasiz. Nega yangi avlod darsliklarini tuzishga kirishmay-siz?! Juda boy tilning egasimiz. E'tibor bering-a, birgina go'zal qiz birikmasi takibidagi go'zal so'zini qancha ma'nodoshi (yoki ma'no nozikligida farq qiluvchi muqobil) bilan almashtira olamiz: *chiroyli qiz, bejirim qiz, xushbichim qiz, husnli qiz, husndor qiz, xushro'y qiz, ko'rkam qiz, ko'hlik qiz, barono qiz, suluv qiz, nazokatli qiz, latofatli qiz, deganday qiz, zebo qiz, sohibjamol qiz, ketvorgan qiz, tamam qiz...* Hali bu sirani yana davom ettirish imkoni bor...

Onadek mo'tabar tilimizning ta'limi bilan shug'ullanayotgan jonfido muallim-muallimajonlar.

Bugun qo'l qovushtirib o'tirmasdan bolalarimiz uchun ona tili darslarida zarur bo'lgan ta'limiy vositalarni birgalashib tayyorlaylik. Chunki O'zbekiston bolalari hammamizning farzandlarimizdir.

Dilom YO'LDOŠHEVA,
BuxDU filologiya fakulteti
"O'zbek tilshunosligi" kafedrası dotsenti,
pedagogika fanlari nomzodi

Bu borada amaldagi yangi 8-sinf "Ona tili" darsligida bir qadar ijodiy o'zgarishlar seziladi. Darslikdagi milliyilgimiz zaminidan uzilmagan, tarbiyaviy ahamiyati beqiyos matnlarning, fikr-u mulohazalarning o'quvchi hukmiga havola etilishi, shuningdek, "behuda qoidabozlik"larning 5-, 6-, 7-sinf "Ona tili" darsliklariga nisbatan o'rtaucha uch barobar qisqargani, baralla aytish zarurki, quvonarli hol.

ning 10 dan ortig'i amalda. "O'zbek tilining izohli lug'ati" (5 tomli)dan tortib "O'zbek tili paronimlar lug'ati" gacha yuzga yaqin lug'at-u qomuslarning elektron nusxasi internet tizimida joylashgan. Shukurki, ularni istagancha saqlab olish imkoniyatimiz bor. Albatta, bu imkoniyat o'quvchida ham bor.

Aziz hamkasbim!

"Shaharda hamma sharoiti muhayyo-da, gapiraveradi", degan mulohazaga bormang. Yurtboshimiz tashabbusi bilan eng chekka qishloq maktablarida ham kompyuter sinflari tashkil etildi. Siz shu maktab kompyuterlari xotirasiga hech bo'lmasa, ellikta lug'atning elektron shaklini joylay oldingizmi? Ona tili mashg'ulotlarini kompyuter sinflarida o'tishga harakat qilib ko'ryapsizmi? E'tibor bering. Dars payti o'quvchimiz bir nafasiga bo'sh qoldi deguncha telefoniga qarab oladi. Nega biz o'quvchimizning telefoni xotirasiga o'zbek tili lug'atlarini joylay olmayapmiz? (Axir ingliz tili o'qituvchilari buni yaxshi uddalashyapti-ku?!)

Muammolar bisyor. Biz hammamiz birgalashib muammolar yechimini izlashga harakat qilayotgimiz. (Chamamda, o'zimizni harakat qilayotganga o'xshab ko'rsatyapmiz, xolos.)

Bugun maktab darsliklarini tanqid qilishga ko'nikib qoldik. Bu qaysidir jihatdan yaxshi. Ammo dunyoda eng qiyin yumushlardan biri — darslik tayyorlash. Sababki,

Taklif

Tarixga to'g'ridan qaraylik

“Har qanday yangilik — unutilgan eskilikdir” degan gap bekorga paydo bo'lmagan. Qolaversa, tarix — xalq mulki, bu boyligni u jang-u jadallarda, qonli bo'hronlarda, vayronalar ostidan, shohlarning oltin qasridan necha yillar davomida zarralab to'plagan va bu tajribalarni ko'z qorachig'idek saqlab kelgan. Shuning uchun tarixni saboq deydlar: odamzod tarixni o'rganish barobarida, ongli hayoti davomida kamchiliklardan xulosa chiqardi, muvaffaqiyatlarini rivojlantirdi va hozirgi taraqqiyot darajasiga erishdi.

Albatta, tarixni o'rganishning asosiy davri maktabda, tahsil jarayonida kechadi. Ayni kunlarda yangilanayotgan yurtimizda bu masalaga ham jiddiy e'tibor berilmoqda. Qolaversa, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hamma havas qiladigan buyuk tariximiz borligini mutasil takrorlab, ta'lim sifatini ham shu darajada tashkil qilishni ta'kidlamog'da. Keyingi yillarda o'quv dasturlari ancha takomillashdi, darsliklar mazmunan boyitildi. Bular albatta yaxshi, lekin davr tinimsiz izlanishlarni, innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etib borishni taqozo qiladi. Shu o'rinda bir mulohaza tug'ildiki, uni jamoatchilik bilan baham ko'rish istagi paydo bo'ldi.

Ma'lumki, ayni paytda maktablardagi tarix darsliklari ichkil xronologik usulda tuzilgan, ya'ni eng qadimgi davrlardan bugungacha bo'lgan tarix yillar bo'yicha o'rgatiladi. Masalan, 6-sinfda qadimgi dunyo tarixi, 7-sinfda o'rta asrlar tarixi, 8-sinfdan boshlab XVII asrdan buyog'i o'rgatiladi. Bu albatta bir tomonlama yaxshi, o'quvchining tasavvuri insoniyat takomili bilan hamqadam rivojlanib boradi. Biroq dastur shunday tuzilgan, umuman insoniyat tarixida muhim bo'lgan voqealar ham bir qur eslab o'tiladi, keyingi bosqichlarda, masalan, 10–11-sinflarda ularga maxsus to'xtalish-

ning imkoni bo'lmaydi. Masalan, to'qqiz yillik ta'lim dasturida Amir Temur va temuriylar davrini o'rganishga 7-sinfda 2 soat (hozir 9 soat) ajratilgan. Taassuf qiladigan tomoni shundaki, keyingi sinflarda bu davrga maxsus to'xtalinmaydi, yo'l-yo'lakay tilga olib o'tish mumkin, ammo tariximizning eng gullagan bosqichi sifatida bu yillar har jihatdan (ilm-fan, san'at, davlatchilik taraqqiyoti, xalqaro aloqalar va hokazo ko'zgisida), qolaversa, jahon tamadduni tadriji bilan qiyoslanib, mukammal o'rgatilishi lozim. Hozircha esa o'rta ma'lumot olgan yoshlarimiz hatto Amir Temurning kimligini ham bilmay kelishyapti. Rostda, ikki soatning birida o'quvchi darsga kelmagan, ikkinchi soatini o'qituvchi o'tkazib yuborgan bo'lsa, o'quvchi tahsili davomida bu nomlarni eshitmagan bo'lishi ham mumkin. Holbuki, hamma joyda surati osib tashlangan, shaharlarda haykali qo'yilgan zotni besh qo'ldak bilish zimmamizdagi qarz. Yoki ilm-fan gullab yashnagan, insoniyatga Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sinolarni yetkazib bergan X–XI asrlar haqida ham shunday xulosaga kelish mumkin.

Xullas, hozir amalda bo'lgan dasturda davr gorizontal usulda joylashtirilgan, voqealar (tarix) esa vertikal tartibda. Biz mulohaza tarzida bir fikrni o'rtaga

tashlashga jur'at qildikki, unda voqealar gorizontal joylashtiriladi, ya'ni tarixni o'rganish insoniyat erishgan yutuqlarni yillar kesimida talqin qilishdan boshlanadi. Masalan, hunarmandchilik tarixi bir yilda o'qitilishi mo'ljallansa, uning paydo bo'lishidan hozirgi darajaga yetishigacha bo'lgan evolutsiyasi yillar ketma-ketligida, butun dunyo ko'zgisida talqin qilinadi. Bu usulda bir davr yoki shaxslar faoliyatiga tahsil davomida bir necha marta to'xtalishga to'g'ri keladi, o'quvchining bilimi rivojlantirib boriladi, eng asosiysi, ahvolni bugungi kun bilan qiyoslash imkoni paydo bo'ladi. Hozir 5-sinfda “Tarixdan hikoyalar” berilgan, shu usulni davom ettirish maqsadga muvofiq. Dasturni voqealarning jamiyat hayotidagi o'rni va o'quvchining yosh xususiyatlarini hisobga olib, “oddiydan murakkabga” tamoyili asosida tuzish mumkin. Xullas, loyiha sifatida biz tavsiya qiladigan tartib taxminan quyidagicha:

- 5-sinfda shaharlar tarixi;
- 6-sinfda hunarmandchilik tarixi;
- 7-sinfda buyuk shaxslar tarixi;
- 8-sinfda ijtimoiy formatsiyalar tarixi;
- 9-sinfda dinlar tarixi;
- 10-sinfda davlatchilik tarixi;
- 11-sinfda madaniyat tarixi.

Mazkur prinsipda bolaning yosh xususiyatlari, dunyoqarashining kengayib borishi, shaxsiyatining shakllanishi singari omillarni hisobga olishga harakat qildik. Masalan, tahsilni shaharlar

tarixidan boshlashdan maqsad — bu yoshda bola atrof-tevarakka sinchkov nazar bilan qaraydi, o'ziga yoqimli narsalar izlaydi. Shunda uning atrofidagi muhit savollariga javob berishi mumkin. Qolaversa, maktabda vatanparvarlik tuyg'usini singdirish eng birinchi talablardan hisoblanadi. O'z qishlog'i, shahrining tarixini bilmasdan esa bu vazifani uddalash qiyin. Shuning uchun bolaning tarixdan ilk sabog'i o'zi yashab turgan makonning tarixini o'rganishdan boshlangani ma'qul.

Albatta, bir mavzu (har bir sinfga mo'ljallangan o'quv dasturini jahon tarixining bir mavzusi, deb atash mumkin) o'rgatilar ekan, faqat axboriy ma'lumotlar bilan cheklanilmaydi, balki hodisaning yuzaga chiqishi, ahamiyati, o'tmishni baholash va kelajakka ta'siri singari qirralari talab darajasida yoritiladi. Deylik, 7-sinfda o'rganishga mo'ljallanayotgan “Buyuk shaxslar tarixi”, avvalo, bolaning yosh xususiyatlariga mos (shu yillarda o'smir biologik jihatdan tez rivojlanish bosqichiga kiradi, yavollari tizginsiz, o'ziga ideal izlaydi va hokazo), shunga ko'ra shaxslar haqida gap ketganda u zotning shunchaki tarjimai holi emas, ko'proq faoliyatining ahamiyatiga urg'u beriladi.

Bizningcha, maktabdagi o'quv dasturi ana shunday tartibda tuzilsa, ancha qiziqarli bo'ladi, o'quvchilar tarixiy dalillarni quruq yodlashdan ko'ra ularning mohiyatini anglash hamda mulohaza yuritish malakalarini hosil qiladi. Zero, tarixni o'rganishning bosh maqsadi ham o'tmish saboqlari bilan kelajak avlodni tarbiyalashdir.

Umuman, bu tavsiya shunchaki boshlang'ich loyiha, uning to'ldirilishi, mukammallashtirilishi hamkasblarimizning sa'y-harakatlariga bog'liq.

Hakim SATTORIY,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi,
Anvarbek MUHAMMADIYEV,
Kasbi oziq-ovqat kollejining tarix fani o'qituvchisi

Baholash — ta'limning asosi

Bilamizki, baholash tizimi — o'quvchining o'zlashtirish darajasini belgilab beruvchi muhim omil, shu bilan birga, rag'bat hamdir. Rag'bat esa o'quvchining bilim olishiga turtki bo'ladi. Demak, baholash tizimi o'quvchi uchun ta'lim vazifasini ham o'tashi kerak. Bu har bir pedagog o'ziga xos baholash usulini yaratishini taqozo etadi. Mazkur usul bolani pedagogga yaqinlashtiradi va fanga qiziqishini oshiradi.

Hozir baholashning qator usullari mavjud, jumladan, individual baholash, guruhda baholash, jamoada baholash. Ammo ular ancha eskirdi. Ayniqsa, bolalarning o'z-o'zini baholash usuli yangilik sifatida kirgan bo'lsa-da, biroq ta'lim sifatini oshirishda unchalik yaxshi natija bermadi.

“Barakalla”, “Ofarin”, “Harakat qil”, “Qoniqarli”, “Qoniqarsiz”, “Besh”, “To'rt”, “Uch” va boshqa rag'bat kartochkalari boshlang'ich va o'rta sinflarda

tabiiy tuyulsa-da, yuqori sinflar uchun zerikarli.

Quyidagi tajriba o'quvchilarni baholashda yaxshi samara berishi mumkin. Masalan, adabiyot darsida har bir sinf kesimida ona tilida o'tilayotgan saboqlarga mos tarzda baholash vositalarini shakllantirish mumkin. Xususan, o'qituvchi 6-sinfda so'z turkumlari mavzusida “Fe'l” nomli kartochka guruh a'zolarini rag'batlantirish uchun, “Aniq nisbat” nomli kartochka esa besh ball, “Fe'lning vazifa shakllari”


to'rt ball, “Fe'l mayllari” 3 ball, “Fe'lning bo'lishli va bo'lishsiz shakli” 2 ballni ifodalaydigan tizimda baholashni yo'lga qo'ysa, bola ham mantiqan baholash tizimini o'zlashtiradi, ham adabiyot darsidan berilgan kartochkalarni izohlash orqali, ona tili fanida o'tilgan mavzuni takrorlab boradi. Bu kabi kartochkalarni o'qituvchi mavzuga moslab o'zgartirishi yoki o'quvchilarni

o'z-o'zini rivojlantirish jarayoniga jalb etish orqali mustaqil ishlashga o'rgatib borishi mumkin.

Ona tili darslarida o'qituvchi “Xamsa”, “Xazoyin ul-maoni”, “Ufq”, “Kech va kunduz”, “Chinor” kabi shakl nuqtayi nazardan bitta, ikkita, uchta, to'rtta, beshta kitobdan iborat shakllarni berib boradi, qolaversa, she'riy shakllar tanka — 3, fard — ikki ball va hokazo. Bunda o'quvchi

darsda faol qatnashsa, o'qituvchi unga “Xamsa” kitobi tasviri tushirilgan kartochka beradi. O'qituvchi nega aynan “Xamsa” bilan taqdirlaganini so'rasa, o'quvchi “Xamsa”ning besh doston iborat ekani va shuning uchun bu kartochkaning “besh” ball ekanini bilishi kerak. Agar uni izohlab bera olsa, o'qituvchi buni inobatga olib, baholash vositalarini o'quvchilarning saviyasiga moslab o'zgartirib borishi, yangilashi va qo'shimchalar kiritishi mumkin. Mazkur usul bolani harakatga, o'ylashga, fikrlashga undaydi. Bu kabi baholash tizimi bolaning fan yuzasidan bilimni takomillashtirish, mustahkamlash va o'rganaganlarini eslab qolishiga imkon beradi. To'g'ri, bu holat avvaliga bolani chalg'itganday bo'lishi mumkin. Ammo bu boshlang'ich ko'nikmalar o'quvchining yangilikka va murakkablikka qiziqishini uyg'otadi. Qolaversa, baholash tizimida bolalar ham yangilik o'yib topishiga imoniylar yaratiladi.

Xurshida NISHONOVA,
Shohida NISHONOVA,
Namangan shahridagi
43-maktab o'qituvchilari



Gazeta va gazetxon

Nega o'zbekcha gapirmaymiz?

“Ma'rifat”ning ona tili va uni o'qitish masalalariga bag'ishlangan maxsus sonini qo'lma-qo'l qilib o'qidik. Menga ayniqsa Inomjon Azimovning “O'zbek tili o'lmaydi” deb nomlangan maqolasi juda manzur bo'ldi. Muallif achchiq haqiqatlarni qalamga olibdi. Meni ham bu masalalar ko'p o'ylantiradi. Muallim sifatida bugungi otionalarning farzandi ingliz yoki rus tilini o'rganishiga e'tibor qaratayotgani kabi ona tilini o'zlashtirishi ustida qayg'umasligi meni tashvishga soladi.

Ko'plab ota-onalar farzandini ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflarga berishni istaydi. “Rus tilini bilishi zarur-da, erta bir kun ishga joylashayotganida hamma korxonalar, idoralar rus tilini bilish, bilmasligiga qaraydi”, degan gaplarni ulardan ko'p eshitaman. O'ylab qarasaq, ularning ham vajlari to'g'ri. Ammo, bu degani ona tilining so'zlashuv uslubining o'zlashtirishning o'zi yetarli degani emas. Ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflardagi 80 foiz o'quvchining millati o'zbek, ammo ular rus tilida fikrlaydi. Biror nima so'rasangiz, ayrim so'zlarning o'zbek tilida qanday atalishini bilishmaydi. Yoshlarning suhbatiga quloq tuting, qaysi tilda so'zlayapti ular? O'zbek tilida-yu, ammo o'zbekcha emas. Ona tilimizni buzib so'zlashlari, ijtimoiy tarmoqlarda g'ij-g'ij xato bilan yozishlari (tushunarli — 4unarli, qiladi — qlad, shunaqa — mawnqa) ular uchun urfga aylanib borayotgandek. Bilishimcha, tarmoqlardagi yoshlar guruhlarida adabiy tilda yozganlar kulgiga qoladi. Biz uchun bunday ortiq fojia bormi?

“O'zbek tili o'lmaydi” maqolasida muallif shunday debdi: “Biz negadir “millatchi” degan so'zdan

cho'chiymiz, xuddiki boshqa millatlarni kamsitayotgan shaxsni tasavvur qilamiz. Aslida, millatchi deganda, o'z millati, uning tili, qadriyatlar uchun qayg'uruvchi shaxs nazarda tutilishi kerak. Shu ma'noda barchamiz millatchi bo'lishimiz shart”. Mana, ayni haqiqat. Biz emasmi, o'z yurtimizda rus millatiga mansub insonlarning savollarga ruscha javob berishga o'rganagan. Hammasi mana shundan boshlanadi. Bolalarimiz til o'rganmasin demayman. Lekin O'zbekistonda hamma rus tilini emas, o'zbek tilini bilishi shart deb o'ylayman. Nega ishga qabul qilinayotgan o'zbekdan rus tilini bilish talab etiladi. Aytaylik, do'konlarda, davlat xizmatlarida ishlaydigan xodimlar rus mijozlarga rus tilida murojaat qilishi uchun xodimdan “rus tilini bilish shart” deb talab qo'yiladi. Ammo o'sha do'konlarda, davlat xizmatlarida faoliyat yuritayotgan rus millatiga mansub xodim o'zbek mijozlarga o'zbek tilida murojaat qilishi shart emas. Nega? Qachongacha, “millatchilik” aybini olmaslik uchun o'z yurtimizda bunday notenglikka duch kelaveramiz. Kommunal to'lovlarini to'lash uchun borsangiz ham, rus millatiga mansub ayol har bir mi-



jozga rus tilida murojaat qiladi. Rus tilini bilmaydigan millatdoshlarimiz so'zini tushuntirmay, yelka qisib aybdordek, ishini bitkazolmay qaytib ketadi. Nega davlat xizmatlarida faoliyat yuritadigan har bir xodim o'zbek tilini bilishi kerakligi talabi qo'yilmaydi ularga?

Yana bir misol, ta'lim rus tilida olib boriladigan maktabga o'zbek tili o'qituvchisi ishga qabul qilinishi oldidan, albatta, undan rus tilini bilishi kerakligi talab qilinadi. “O'quvchilar bilan muloqot qila olishingiz kerak-ku”, deb sabab ko'rsatishadi. Ammo nega ta'lim o'zbek tilida olib boriladigan maktabda rus tilidan kiradigan o'qituvchidan o'zbek tilini bilishi talab etilmaydi? Aksincha, ota-onalar ham xursand, yaxshi-da tilni tez o'zlashtiradi, deb. Xo'sh, tilni tez o'zlashtirishga bu yaxshi imkoniyat bo'lsa, nega rus tilini bilmaydigan filologga o'zbek tilidan dars berishmaydi. Yaxshi emasmi, ruziyabon bolalarining o'zbek tilini oson o'rganishi? O'ylab qarasaq, biz ona tilimiz ertasi uchun o'zimiz yovdek harakat qilayotgandekmiz. Aslida, tilimizni hech bir xorij tiliga almashtirmasak, ona tilida so'zlab, shu tilda fikrlasak, uni boshqa millatlar o'rnatida ham targ'ib qilishga urinsak, tilimizning so'zlashuv qolsak, o'zbek tilimiz o'lmaydi, yanada dovrug' qozonadi.

Shahnoza A'ZAMOVA,
Yunusobod tumanidagi
272-maktab o'qituvchisi

O'qituvchi ona tilini mukammal bilishi kerak!

“Ma'rifat” gazetasi 19-fevral sonini olib, to'g'ri o'qishni qaysi maqoladan boshlashni bilmay qoldim. Chunki barcha sarlavhalardan qiziq, mulohazali, tahliliy maqolalar berilganligi ko'rinib turardi. Ketma-ket o'qishga tushdim. “Davlat buyurtma berdi. Nega natija sezilmayapti?”, “O'zbek tili o'lmaydi”, “Savodxonlik — ongli o'zlashtirish asosi”, “11-sinf darsligi kamchiliklari”, “Yana “ona tili” darsligida muammolar”, “Murakkab mavzularni oson o'rgatamiz”, “Mashqlar orqali ona tilimizni o'rganamiz”...

“Tajriba” rukni ostida berilgan “Savodxonlik — ongli o'zlashtirish asosi” maqolasini o'qib, muallif juda to'g'ri fikrlarni ilgari surganligini bildim: “Savodxon o'quvchi ongli ravishda barcha fanlarni a'lo darajada o'zlashtirishga harakat qiladi. Bunda boshlang'ich ta'lim muhim paydoydir. Chiroyli va bexato yozuv bola tarbiyasida, fe'l-avtovi shakllanishida muhim ahamiyatga ega”. Chiroyli yozgan o'quvchi boshqa fanlardan ham yaxshi o'zlashtirishga 30 yillik tajribam davomida ko'p bor duch kelganman.

O'zim ingliz tili o'qituvchisiman. To'g'ri, avval maktablarda kirill alifbosidan foydalanilgan yillari boshlang'ich sinf o'quvchilarining xati chiroyli bo'lardi. Balki bu kirill yozuvining xususiyati bilan bog'liqdir? Bu o'z navbatida lotin grafikali ingliz tili darslarida ham bilinardi. Ammo hozirgi kunda negadir o'quvchilarning yozuvi talab darajasida emas.

Muallif “Imloviy savodxonlik yozma nutq mukammalligining asosidir. Shuning uchun yozma nutqda yuksak savodxonlik adabiy til me'yorlariga rioya etish, til vositalaridan foydalana olish, o'z fikrini savodli

bayon qilish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda birinchi navbatda o'qituvchining o'zi o'quvchiga namuna bo'lmog'i lozim”, deydi.

To'g'ri, o'quvchi kiyinishda, soch turmagida, barcha-barcha xatti-harakatlarida o'qituvchisiga taqlid qiladi. Men ham darslarimda o'quvchilarga birinchi navbatda odam o'z ona tilini mukammal bilishi kerakligini, ana shundaygina chet tillarni oson o'zlashtirishi mumkinligini ta'kidlayman.

O'quvchilarning egallagan bilimlari, albatta, ularning yozma ishlarida aks etadi. Buni bilganim uchun o'quvchilarga darsimda kichik hikoyalarni yozish, o'qigan kitoblari asosida esse yozish, ko'rgan rasmlarini tasvirlash kabi topshiriqlarni beraman. Ularni tekshirib, o'quvchilar tomonidan yo'l qo'yilgan xatolarni aniqlab, darsdan tashqari to'garaklarda shu xatolar ustida ishlamaymiz.

O'quvchining savodxon bo'lishida to'garaklarning ahamiyatini ham aytib o'tish kerak. Sababi, 45 daqiq davomida o'qituvchi barcha o'quvchini darsga to'liq qamrab ololmaydi. Garchi ingliz tili fani o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib o'qitilsa-da, til o'rgatishda o'quvchi individual yondashish lozim. Shu sababli o'zim dars beradigan 6-7-sinflar uchun alohida to'garak ochganman. To'garakda o'quvchilarning husnixati bilan ham jiddiy shug'ullanaman. Chunki maktabimizga o'quvchilar turli maktablardan, turli o'qituvchilardan saboq olib xat-savod chiqarib kelishadi. Shuning uchun ularning savodxonligi, husnixati ham turlichadir.

Shahnoza DEHQONOVA,
Uchko'prik tumanidagi
1-IDUMI ingliz tili fani o'qituvchisi

Fikr bildirishga har bir shaxs haqli

Xabaringiz bor, gazetamizning 8-soni (2020-yil 19-fevral) ona tilimiz va uni o'qitish masalalariga bag'ishlangan edi. Ushbu sonda talaba Fazliddin Ro'ziyev “11-sinf darsligi kamchiliklari” sarlavhasi ostida 2018-yili nashr etilgan 11-sinf “Ona tili” darsligidagi ayrim kamchiliklar haqida o'z fikrini bildirgan. Tahririyatimizga ana shu darslik mualliflari nomidan talabaning maqolasi yuzasidan munosabat kelib tushdi. Afsuski, munosabatning avvalidagi jumalarda tanqidga nisbatan toqatsizlik kayfiyati sezilib qolgan. Darslik — o'quvchiga ham, o'qituvchiga ham birdek taalluqli qo'llanma. Gazeta esa — erkin fikrlar minbari. Shunday ekan “Ma'rifat” gazetasi o'qituvchi-yu o'quvchining, talaba-yu professorning fikrini birdek hurmat qilgan holda, chop etishni lozim topadi. Haqiqat bahslarda tug'ilganidek, tanqidlar ham muammolarning to'g'rilanishiga xizmat qiladi. Quyida munosabat bilan tanishing.

“Ma'rifat” gazetasi 2020-yil 19-fevral sonida 11-sinf “Ona tili” darsligi yuzasidan bildirilgan fikrlarga javob:

1. Avvalo, maqola muallifi SamDU 4-kurs talabasi Fazliddin Ro'ziyevning shaxsiy fikrini (ng) darslikdagi kamchilik sifatida sun'iy taqdim qilinishi kamida insoniylik etiketiga zid. U aytganidek, “Nutqning to'g'riligi” mavzusida leksik (so'z o'llash), talaffuz, so'z yasalishi, morfologik, sintaktik va uslubiy me'yorlarning buzilishi bilan bog'liq xatoliklarning barchasiga darslikda misollar keltirishni ona tili o'qitish metodikasi ma'qullamaydi. Negaki, (.) so'zlarning xato shakllarini ko'rgan o'quvchi ongida uning shu xato shakli o'mashib qoladi. Mualliflar ana shu aks ta'sirni nazarda tutib, lozimlarining mashqlar sirasida ko'rsatgan.

2. “Mantiqiylik va grammatik vositalar” mavzusida qo'llangan “sath” so'zini o'quvchi tushunishi murakkab deyish o'zini oqlamaydi. Bunda o'qituvchi bir og'iz “sath” so'zini “tuzilish” tarzida izohlab o'tsa kifoya. Chunki bugun o'n-o'n ikki yoshli bola xitoy tilini o'rganishning epini topayti.

3. “Nutqning boyligi” va “Nutq boyligini ta'minlovchi vositalar” mavzularida leksik vositalarni (so'z qo'llash) to'g'ri qo'llash va so'zlarning semantikasi (so'z ma'nosi)dagi o'zgarishlar bilan bog'liq namuna va misollar keltirish lozimligi aytiladi. Bu mutlaqo xato, chunki so'zlarni to'g'ri qo'llash, so'z semantikasidagi o'zgarishlar nutqning boyligi mavzusining emas, nutqning aniqligi, nutqning mantiqiyligi va nutqning ifodaliligi mavzulariga moski, mualliflar ushbu mavzular bayonida bunga qat'iy amal qilgan. Darslikning 62- va 63-mashqlarida nutq boyligini ta'minlashda semantik va grammatik vositalarning ishtiroki nazarda tutilgan. Intonatsion vositalarning nutq boyligini ta'minlashdagi ahamiyati, masalan, 63-mashqda berilgan gap tuzish shakllarida ko'rinadi.

N. MAHMUDOV,
filologiya fanlari doktori, professor
Y. ODILOV,
filologiya fanlari nomzodi

“Telegram” tarmog'idagi “Ma'rifat” mushtariylari” guruhida o'qituvchilar mazkur darslik yuzasidan ham fikr bildirishdi:

Dilnoza Ergasheva:

— Haqiqatan, 11-sinf darsligidagi barcha mavzuni 5-6 soatda o'tsa bo'ladi. Darsliklarda jo'yali fikrlar, izohlar bo'lsagina o'quvchi-yu o'qituvchining vaqti sarf etilganiga arziydi. Shuning uchun tilshunoslik bo'limlari takrorlanib, har bir bo'limga mos matn va gap tahlillari berilsa foydali bo'lardi.

Shahnoza Sharipova:

— Sir emasi, 11-sinf darsligidagi takroriy va jo'n mavzular o'quvchi uchun ham zerikarli. Yil davomida o'tilishi mo'ljallangan mavzularni 10 soatlik mashg'ulotda o'tsa bo'ladi. Bundan ko'ra, o'quvchilar uchun ko'proq qiyinchilik tug'iradigan “Qo'shma gaplar va ularning turlari” mavzusini puxta o'qitish, qolaversa, ushbu mavzuga oid mustahkamlovchi testlar kaliti kiritilsa, yaxshiroq bo'lardi.

Mohidil Alimova:

— Bitiruvchi sinf o'quvchilariga ko'proq faktlar asosidagi testlarga tahliliy namunalar berib, darslik tuzilsa yetarli. Nutqni o'tirishga oid mavzularning ketma-ket o'tilishida ham ma'no yo'qdek, nazarimda.

Hayot mazmunini ilmdan topdi

Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti bir guruh olimlari AQShning Merilend shtatidagi Qishloq xo'jaligi ilmiy-tadqiqot laboratoriyasida parazitologiya bo'yicha loyiha muhokamasida ishtirok etishdi. Ular orasida o'zbek olimasi Dilbar Isoqovaning ham borligi, albatta, quvonarlidir.

Xotin-qizlar bayrami arafasida olim haqida gapirmasak bo'lmaydi. U bundan yetmish yil burun ayni bahor kunlari Toshkent shahrida tavallud topdi. 1972-yili Toshkent davlat universitetining biologiya-tuproqshunoslik fakultetini "Zoologiya" ixtisosligi bo'yicha bitirdi. Mehnat faoliyatini O'zbekiston Fanlar akademiyasi Zoologiya institutida ilmiy-tadqiqot olib borish bilan boshladi. Bu dargohda ishlash jarayonida respublikamizning turli hududlarida hayvonlar parazitofaunasini o'rganishga munosib hissa qo'shdi. Xususan, qishloq xo'jaligi va uy hayvonlari gelmintlarining faunasi, morfologiyasi, biologiyasi va ekologiyasini o'rganish borasida izlanishlar olib bordi.

Doimo yangilikka intiluvchan, izlanishdan to'xtamaydigan iste'dodli pedagog talabarlari orasidan bugungi kunda Fanlar akademiyasi tizimida faoliyat yuritayotgan fan nomzodlari, tuman veterinariya bosh vrachlari, qolaversa, respublikadagi barcha veterinariya tarmoqlarida samarali mehnat qilib, respublikamiz xalq xo'jaligi rivojlanishiga

barakali ulush qo'shayotgan ko'plab insonlar yetishib chiqdi. U parazitolog mutaxassislar uchun mo'ljallangan "Parazitologiya terminlarining izohli lug'ati" (2007), kasb-hunar kollejlari talabarlari uchun mo'ljallab yozilgan "Parazitologiya" (2004) o'quv qo'llanmasi, "Parranda kasalliklari bo'yicha qisqacha ma'lumotnoma" (1987) kitoblarining hammualiflaridan biriga aylandi.

Dilbar opa Birlashgan Millatlar Tashkiloti Rivojlanish dasturining "Biologik xilma-xillikni saqlash: milliy strategiya va harakat rejasi"ni tayyorlashda ham faol ishtirok etdi. Uning parazitologiya va zoologiya sohalarida xalqaro va respublikaning nufuzli jurnallarida 60 dan ziyod ilmiy maqolalari chop etildi. Hayvonlar organizmida parazitlik qiluvchi trematodalar va nematodalar faunasi, ekologiyasi bo'yicha olib borgan tadqiqotlari "Shimoli-sharqiy O'zbekiston hayvonlari parazitlarining ekologiyasi", "O'zbekistonning tog' ekosistemalarida umurtqali hayvonlar gelmintlari" monografiyasida o'z aksini topdi. Olima qator respublika va xalqaro ilmiy anjuman-



Suratda: Dilbar Isoqova do'stlari va shogirdlari bilan AQShning Merilend shtatidagi Qishloq xo'jaligi ilmiy tadqiqot laboratoriyasida

larda ishtirok etib, fanimiz yutuqlarini keng jamoatchilik e'tiboriga yetkazib kelmoqda. Shuningdek, D.Isoqova qishloq xo'jaligi hayvonlari gelmintozlarining oldini olish bo'yicha tavsiyanomalar ishlab chiqishda ishtirok etdi. Bu ishlanmalar veterinariya amaliyotiga joriy etilib, o'zining iqtisodiy samarasini berib kelmoqda. Opaning ilmiy izlanishlari munosib qadrlangan. U "Shuhrat" medali, "O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi a'lochisi" nishoni bilan taqdirlangan.

Mohir pedagog, olim, yoshlarning bag'rikeng ustoz Dilbar opani Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami hamda tavalud topganiga 70 yil va ilmiy-pedagogik faoliyatiga 50 yil to'lishi munosabati bilan samimiy muborakbod etamiz. Uzoq umr, sog'lik-salamatlik, ezgu maqsadlarni amalga oshirishda kuch-quvvat tilaymiz.

Erkinjon SHAKARBOYEV,
biologiya fanlari doktori, professor
Gulnora MIRZAYEVA,
biologiya fanlari nomzodi

Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi tasarrufidagi quyidagi umumiy o'rta ta'lim maktablari direktori lavozimiga TANLOV E'LN QILADI:

1. Mirzo Ulug'bek tumanidagi 120-umumiy o'rta ta'lim maktabi.
2. Mirobod tumanidagi 65-umumiy o'rta ta'lim maktabi.
3. Olmazor tumanidagi 133-umumiy o'rta ta'lim maktabi.
4. Sirg'ali tumanidagi 68-, 322-umumiy o'rta ta'lim maktablari.
5. Chilonzor tumanidagi 138-, 281-, 195-"A", 217-umumiy o'rta ta'lim maktablari.
6. Uchtepa tumanidagi 74-umumiy o'rta ta'lim maktabi.
7. Shayxontohur tumanidagi 45-, 85-, 316-umumiy o'rta ta'lim maktablari.
8. Yunusobod tumanidagi 5-, 72-, 260-umumiy o'rta ta'lim maktablari.
9. Yakkasaroy tumanidagi 26-umumiy o'rta ta'lim maktabi.
10. Yashnobod tumanidagi 166-umumiy o'rta ta'lim maktabi.

TANLOVDA:

- kamida bakalavr darajasiga ega;
- ta'lim sohasida kamida 5 yillik pedagogik staj va rahbarlik lavozimida ishlagan;


- 2 yil ish stajiga ega fuqarolar ishtirok etishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxslar "Umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori lavozimiga tanlov o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan tegishlilik bo'yicha bosh boshqarmaga quyidagi hujjatlarni, jumladan, elektron shaklda taqdim etadi:

- komissiya nomiga ariza;
- pasport nusxasi;
- so'rovnoma;
- oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom yoxud vakolatli davlat organining xorijiy ta'lim muassasasida olingan oliy ma'lumot to'g'risidagi hujjatning nostrifikatsiyalash (ekvivalentligini qayd etish) to'g'risidagi guvohnomasi nusxasi;
- mehnat daftarchasining nusxasi yoki ish stajini tasdiqlovchi "Elektron mehnat daftarchasi" tizimidan ko'chirma.

TANLOV IKKI BOSQICHDA:

- birinchi bosqich — xalq ta'limi sohasiga oid normativ-huquqiy hujjatlarni bilish darajasi, IQ, EQ, menejerlik ko'nikmalarini baholovchi test;



- ikkinchi bosqich — talabgorning nazariy va amaliy bilimlarini aniqlash maqsadida suhbat.

Hujjatlar tanlov e'lon qilingan sanadan boshlab 15 kun ichida qabul qilinadi.

Hujjatlarni quyidagi manzilga topshirishingizni so'raymiz:

Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Mustaqillik ko'chasi, 69-uy.

*Murojaat uchun telefon:
(71) 237-08-17 (shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi kadrlar bo'limi).*

FIDE reytingida o'zbekistonliklar

Jahon shaxmat federatsiyasining har oy e'lon qilinadigan reytingida ayni damda kuchli 100 likdan birgina shaxmatchimiz o'rin olgan. GM Rustam Qosimjonov (1979-yili tug'ilgan) 2 661 reyting bali bilan 81-o'rinda.

FIDE o'smir-larning reyting o'rinlarini alohida hisoblab beradi. 20 yoshgacha eng kuchli 100 nafar yosh shaxmatchilar ro'yxatidan ayni paytda 4 shaxmatchimiz o'rin olgan:

8. GM Nodirbek Abdusattorov (2004) — 2627.

17. GM Nodirbek Yoqubboyev (2002) — 2591.

27. GM Javohir Sindorov (2005) — 2557.

47. GM Shamsiddin Vohidov (2002) — 2512.

Bu ro'yxatda, shuningdek, hozir Avstraliya fuqaroligini olgan GM Temur Qo'yoqarov (2000) ham bor: 2530 reyting bali bilan 38-o'rinda.

18 yoshgacha

3. GM Nodirbek Abdusattorov (2004) — 2627.

9. GM Nodirbek Yoqubboyev (2002) — 2591.

13. GM Javohir Sindorov (2005) — 2557.

22. GM Shamsiddin Vohidov (2002) — 2512.

16 yoshgacha

1. GM Nodirbek Abdusattorov (2004) — 2627.

6. GM Javohir Sindorov (2005) — 2557.

14 yoshgacha

68. FM Muhiddin Madaminov (2006) — 2226.

93. Olmos Rahmatullayev (2006) — 2182.

12 yoshgacha

85. CM Humoyun Bekmurodov (2010) — 1971.

10 yoshgacha

12. CM Humoyun Bekmurodov (2010) — 1971.

Ayni paytda O'zbekistonning eng kuchli 10 shaxmatchisi:

1. GM Rustam Qosimjonov (1979) — 2661.

2. GM Nodirbek Abdusattorov (2004) — 2627.

3. GM Nodirbek Yoqubboyev (2002) — 2591.

4. GM Javohir Sindorov (2005) — 2557.

5. GM Jahongir Vohidov (1995) — 2533.

6. GM Jo'rabek Hamroqulov (1988) — 2525.

7. GM Shamsiddin Vohidov (2002) — 2512.

8. GM Mixail Saltayev (1962) — 2475.



9. Bobur Sattorov (1995) — 2459.

10. IM Ortiq Nig'matov (2000) — 2447.

Xotin-qizlar o'rtasida FIDE reytingida mamlakatimizning birinchi raqamli shaxmatchisi Gulruxbegim Tohirjonova (1999) kuchli yuzlikdan o'rin olgan: 2378 reyting bali bilan 87-o'rinda.

O'smir qizlar reytingida vakillarimiz:

20 yoshgacha

55. WIM Nilufar Yoqubboyeva (2000) — 2265.

14 yoshgacha

68. WFM Umida Omonova (2006) — 1852.

83. WCM Afruza Hamdamova (2009) — 1809.

12 yoshgacha

19. WCM Afruza Hamdamova (2009) — 1809.

100. Zilola Aktamova (2008) — 1548.

10 yoshgacha

91. Shahzoda Hasanova (2010) — 1314.

Xotin-qizlar o'rtasida ayni paytda O'zbekistonning eng kuchli 10 shaxmatchisi:

1. WGM Gulruxbegim Tohirjonova (1999) — 2378.

2. WIM Nilufar Yoqubboyeva (2000) — 2265.

3. WGM Irina Gevorgyan (1990) — 2245.

4. WGM Sarvinoz Qurbonboyeva (1994) — 2234.

5. WIM Sevara Boymurodova (1990) — 2153.

6. WIM Bahora Abdusattorova (1999) — 2094.

7. WIM Nodira Nodirjonova (1990) — 2085.

8. WFM Nodirabegim Parpiyeva (1997) — 1986.

9. WFM Sitora Saparova (2002) — 1972.

10. WIM Yulduz Hamroqulova (1989) — 1961.

Sultanov Sanjar O'razaliyevichning 02.00.07 — Kompozitsion, lok-bo'yoq va rezina materiallari kimyosi va texnologiyasi va 02.00.06 — Yuqori molekulyar birikmalar ixtisosliklari bo'yicha "Oziq-ovqat sanoati uskunalarini korroziyadan himoya qilish maqsadida kompozitsion polimer materiallari hamda ular asosidagi qoplamalarning samarali tarkibi va olish texnologiyalarini yaratish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti "Fan va taraqqiyot" DUK huzuridagi DSc.27.06.2017.K/T.03.01 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2020-yil 31-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100174, Toshkent shahri, Mirzo G'olib ko'chasi, 7-"A" uy.

Tel/faks: (71) 246-39-28, 227-12-73; e-mail: gupft@inbox.uz

Bafoyeva Guljamol Nusratovnaning 02.00.17 — Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish, saqlash hamda qayta ishlash texnologiyalari va biotexnologiyalari ixtisosligi bo'yicha "Paxta palmitinidan kakao moyi o'rinbosarini olishning ilmiy-texnologik asoslarini yaratish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.T.04.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 12-mart kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,

Alisher Navoiy ko'chasi, 32-uy.

Tel: (71) 244-79-20, 262-79-17; e-mail: tkti@mail.uz

Norboyeva Umida Toshtemirovnaning 03.00.07 — O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi ixtisosligi bo'yicha "G'o'za navlarining sho'rhanlashga moslashish va chidamliligining fiziologik asoslari" mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti va O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.29.08.2017.V.53.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 13-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111226, Toshkent viloyati, Qibray tumani, Yuqori-yuz.

Tel/faks: (71) 264-23-90; e-mail: igebr@academy.uz

Sultanova Ra'no Xakimovnaning 14.00.17 — Farmakologiya va klinik farmakologiya ixtisosligi bo'yicha "Rux va vismutning yangi koordinatsion preparatlarining farmakologiyasi" mavzusidagi (farmatsevtika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 17-mart kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Oybek ko'chasi, 45-uy.

Tel/faks: (71) 256-37-38; e-mail: farmi@bcc.uz

Saliyev Bahodir Kamilovichning 06.01.02 — Melioratsiya va sug'orma dehqonchilik ixtisosligi bo'yicha "Shaharlarning za'xlangan hududlari melioratsiyasining ilmiy-amaliy asoslari" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.T.10.02 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 6-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100000, Toshkent shahri, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy.

Tel/faks: (71) 237-22-09, 237-38-79; e-mail: admin@tiame.uz

Safarov Asqarbek Asadullayevichning 06.01.09 — O'simliklarni himoya qilish ixtisosligi bo'yicha "Yong'oq daraxtlarining kasalliklari va ularga qarshi kurash choralarini ishlab chiqish" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat agrar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.05/30.12.2019.Qx.13.01 raqamli ilmiy kengashning 2020-yil 17-mart kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100140, Toshkent viloyati, Qibray tumani Universitet ko'chasi, 2-uy.

Tel/faks: (71) 260-48-00; e-mail: tuag-info@edu.uz

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti jamoasi Tarix fakulteti "Arxeologiya va etnologiya" kafedrasida mudiri Fayzulla Ochilidiyevga akasi **Eshamat OCHILDIYEV**ning vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti jamoasi Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor Zaynabidin Abdirashidovga onasi **HALIMAXON** ayaning vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti jamoasi O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti dekani, professor Laylo Raupovaga onasi

BONU ayaning

vafoti munosabati bilan ta'ziya bildiradi.

Toshkent davlat agrar universiteti jamoasi universitet huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.05/30.12.2019.Qx.13.02 raqamli ilmiy kengash a'zosi hamda Samarqand veterinariya meditsinasi instituti "Hayvonlar genetikasi, seleksiyasi, urchitish va ko'paytirish" kafedrasida professori

Abdusattar QAXAROV

ning vafoti munosabati bilan marhumning yaqinlari va oila a'zolariga ta'ziya bildiradi.

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Go'zal diyorimizga barchamiz sog'inib kutgan bahor nafasi kirib keldi. O'rik gullari ifori taralayotgan ushbu damda biz bahor va ayol so'zlarining naqadar uyg'un va hamohang ekanini yanada chuqur anglayapmiz! Mehr-muhabbat va odamiylikning ilk saboqlarini siz ayollardan, siz aytgan betakror alla ohanglaridan olganimiz rost!

Hayotimiz mazmuni, sevgi va sadoqat, mehr-muhabbat tuyg'ularini o'zida mujassam etgan, niyati va dili pok, Yaratganning beqiyos mo'jizasi bo'lmish ayollar, bahor bayramingiz muborak bo'lsin!

Mart

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. G-329. Tiraji 10938.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotihiyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirish shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Shoiria Boymurodova.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'zA yakuni — 22.00 Topshirildi — 22.20

1 2 3 4 5 6